



JAHON TARIXI

8

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 8-sinfi
uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

..... **YANGI NASHR**

Toshkent – 2024



KIRISH

Aziz o'quvchilar! Siz 7-sinf Jahon tarixi darsligida o'rta asrlar tarixining bir qismi bilan tanishdingiz. Mazkur darslikda esa o'rta asrlar tarixining so'nggi davrlari aks etgan XIII–XV asrlardagi jahon xalqlarining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi eng muhim voqea-hodisalar bayon etilgan.

Bu davrga kelib insoniyat tarixida muhim siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu voqealar jahon xalqlarining keyingi taraqqiyotida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Jumladan, dunyoning turli hududlarida yirik markazlashgan davlatlar tashkil topdi. Yevropada Angliya, Fransiya, Ispaniya, Italiya, Osiyoda Amir Temur va Temuriylar saltanati, Usmoniy turklar sultonligi, Oltin O'rda, Xitoy, Hindiston, Yaponiya va Koreya kabi davlatlar jahon xalqlari hayotida o'ziga xos tarix yaratdi. Sharq va G'arb mamlakatlari davlat boshqaruvida – kengash, General shtatlar, parlament vujudga keldi va ular hozir ham muhim ahamiyatga ega.

Markazlashgan davlatlarning tashkil topishi ijtimoiy-iqtisodiy soha yuksalishiga zamin bo'ldi. Turli siyosiy jarayonlar ta'sirida dehqonlar qaramligi bekor qilindi, shaharlar hayoti taraqqiy etib bordi. Ayniqsa, Buyuk ipak yo'li orqali Osiyo va Yevropa mamlakatlari o'zaro qizg'in savdo-sotiqni amalga oshirdilar. Bu, o'z navbatida, Sharq va G'arb, Shimol va Janub mamlakatlari hamda xalqlari o'rtasida xalqaro munosabatlarning rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatdi. Bunday iqtisodiy munosabatlar dastlabki bank va birjalarning yuzaga kelishida muhim rol o'ynadi. Bu davrda Afrikadagi Mali, Songay, Amerikadagi Mayya, Atstek, Ink kabi davlatlar ham o'ziga xos iqtisodiy rivojlanish yo'lini bosib o'tdi.

XIII–XV asrlarda jahon xalqlari yuksak madaniy taraqqiyotga ham erishdilar. Jumladan, Sharq mamlakatlari, xususan, Movarounnahrda bu davrda Ikkinchi, Yevropada esa Ilk Renessans yuz berdi. Jahonning yirik ilmiy muassasalarida diniy va dunyoviy fanlar o'qitilishi natijasida ilm-fan rivojlanib, qator kashfiyotlar amalga oshirildi. Dunyo xalqlari adabiyot, san'at, musiqa, teatr, haykaltaroshlik va me'morchilik sohasida katta yutuqlarni qo'lga kiritdilar.

XIII–XV asrlarda jahon xalqlari hayotida yuz bergan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlarni Vatanimiz tarixi bilan qiyosiy o'rganish muhim ahamiyatga ega. O'rgangan bilimlaringiz kelajakda yurtimiz taraqqiyotiga xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Qadrli o'quvchilar! Darslik "Siz bilib olasiz", "Eslab ko'ring!", mavzuning asosiy matni, "Savol va topshiriqlar" kabi qismlardan iborat. Jumladan, "Siz bilib olasiz" qismida mavzuga doir tayanch tushunchalar bilan tanishasiz. "Eslab ko'ring!" qismi sizga o'tgan darslardagi ma'lumotlarni takrorlab, yangi bilimlarni o'zlashtirishingizga yordam beradi.

Mavzuning asosiy matniga "Tarix yondaftarchangizga kiriting!", "Mening tarixiy tadqiqotlarim" kabi qismlar ilova qilinadi. "Tarix yondaftarchangizga kiriting!" qismida qiziqarli qo'shimcha ma'lumotlar jamlangan. "Mening tarixiy tadqiqotlarim" orqali siz turli mamlakatlarga oid tarixiy voqealarni tahlil etish, qiyoslash hamda ularga nisbatan fikr bildirishni o'rganasiz. Mavzularning asosiy matnida "Tarixiy mushohada" qismini ham uchratasiz. Unda siz e'tiboringizni qaratishingiz zarur bo'lgan mavzuning eng muhim ma'lumotlari, shuningdek, yorqin voqea-hodisalarga urg'u beriladi. Har bir mavzu so'ngida "Savol va topshiriqlar" berilgan bo'lib, ularni bajarish orqali yangi mavzuni qanchalik yaxshi o'zlashtirganingizni aniqlashingiz mumkin. Bu qismda avvalo muhim g'oya va xulosalar keltiriladi. So'ngra savollarga javob berish uchun faqat darslik matni emas, balki qo'shimcha, masalan, internet ma'lumotlari, yozma manbalar, ilmiy-ommabop asar va risolalardan foydalanish zarur bo'ladi.

XIII-XV ASRLAR JAHON TARIXINING MUHIM VOQEALARI

1263

Mayyalar tomonidan
poytaxt Mayyapan
shahriga asos solindi

1215

Angliyada "Erkinlikning
buyuk xartiyasi"
qabul qilindi

1453

Vizantiya
imperiya quladi

1250

Misrda
Mamluklar davlatiga
asos solindi

1302

Fransiyada General
shtatlar chaqirildi

1337-1453

Yuz yillik urush
bo'lib o'tdi

1299

Usmoniylar davlati
tashkil topdi

1368

Xitoyda Min sulolasi
hukmronligi o'rnatildi

1397

Yaponiyadagi
Oltin pavilyon
qurildi

1429

Atsteklar mustaqillikka
erishib, Tenochtitlan
Meksika vodiysidagi eng
qudratli shaharga aylandi

1256

Eronda Hulokuiylar
davlati tashkil etildi

1206

Hindistonda Dehli
sultonligi tashkil topdi

Yevropada
qora o'lat –
vabo kasalligi
tarqaldi

1347

1445

logann Gutenberg
kitob bosish
dastgohini ixtiro qildi



I BOB

**XIII–XV
ASRLARDA
YEVROPA
DAVLATLARI**





Qirol Gugo Kapet

1-mavzu

Fransiyada markazlashgan davlatning tashkil topishi. General shtatlar



SIZ BILIB OLASIZ:

- Ijtimoiy-siyosiy ahvol. Mamlakatni birlashtirish zarurati;
- Fransiyada toifaviy monarxiyaning qaror topishi;
- Aholining toifalarga bo'linishi. Fransiya qirolining cherkovga qarshi siyosati;
- General shtatlarning chaqirilishi. General shtatlardagi ixtilof.

FEODAL TARQOQLIK

Franklar imperiyasining qudratli hukmdori Buyuk Karl vafotidan so'ng uning vorislari tomonidan 843-yilda tuzilgan Verden shartnoma-si ulkan imperiyaning bo'linishini boshlab berdi. 987-yilda Karolinglar sulolasining so'nggi vakili Lyudovik V vafotidan so'ng Kapetinglar sulolasining dastlabki vakili Gugo Kapet hokimiyat tepasiga keldi. Bu vaqtda qirol hokimiyatining siyosiy nufuzi juda past bo'lib, mamlakatda tarqoqlik kuzatilardi. Fransiya 14 ta mustaqil mulklarga bo'linib ketgan edi. Ularni gersog va graflardan iborat feodallar boshqarardi. Ayrim feodallar, jumladan, Burgundiya, Normandiya, Akvitanija grafliklari hatto qirolidan ko'proq yer-mulklar, aholi va siyosiy qudratga ega edi. Shuning uchun yirik gersog va graflar qirolni "tenglarning birinchisi" deb hisoblashardi. Fransiya o'rta asrlar Yevropa siyosatida muhim ahamiyatga ega bo'lib, tarqoq mamlakatni birlashtirish zaruriyati vujudga kelgan edi.



ESLAB KO'RING!

- Franklar davlati qanday vujudga keldi?
- Buyuk Karl va Karolinglar imperiyasi qudrati qay darajada edi?



BUNI YODDA SAQLANG!

Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti – bu mamlakatning turli hududlarida (viloyat va tumanlar, shahar va shaharchalar) ishlab chiqarishning ma'lum sohasiga ixtisoslashuvini bildiradi.

IJTIMOY-SIYOSIY AHVOL

X–XI asrlarda mamlakatda dehqonchilik, ishlab chiqarish, savdo-sotiq, hunarmandchilik jadal o'sib bordi. Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti shakllana boshladi.

Mehnatning hududiy taqsimoti asosida Tuluza va Flandriya to'qimachilikka, Normandiya temirchilik, tuz ishlab chiqarishga, qoramol va yilqi yetishtirishga, Burgundiya va Shampän movut ishlab chiqarishga hamda vinochilikka ixtisoslashgan edi. Savdo va iqtisodiy markazlarning eng yirigi, shubhasiz, Parij shahri edi. Shuningdek, Parijning Sena, Marna kabi ulkan daryolar havzasida joylashganligi uning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Mehnat taqsimotining rivojlanib borishi tarqoq viloyatlarning o'z bilganicha ish yuritishlariga barham berdi, savdo-sotiqda o'zaro bir-biriga bog'lab qo'ydi. Bu esa mamlakatning keyingi taraqqiyotida muhim rol o'ynadi. Ishlab chiqaruvchi toifaning hamda savdo-sotiqning rivojlanishi feodal tarqoqlikka barham berdi.



BILAG'ONLAR UCHUN

Parij shahriga miloddan avvalgi III asrda keltlarning parizi qabilasi tomonidan Lyutetsiya hududida asos solingan. Qirol Gugo Kapet davridan boshlab siyosiy markaz – poytaxt maqomini oldi.

MAMLAKATNI BIRLASHTIRISH ZARURATI

Fransiyaning birlashtirish jarayoni qirol Lyudovik VI davrida boshlandi. U butun hukmronlik davrini mahalliy feodallarga qarshi kurash bilan o'tkazib, Burj va Sans shaharlarini qirollik hokimiyatiga bo'ysundirdi. Mamlakatni birlashtirish yo'lidagi eng katta to'siq Angliyaning Fransiya yadagi mulklari edi. Shuning uchun qirol o'g'li Lyudovik VII ni Akvitanika malikasi Eleonora bilan uylandirish orqali ma'lum muddat ushbu muhim hududni ham o'ziga qaram qildi.

Qirol Lyudovik VII ning o'g'li Filipp II Avgust davrida mamlakatni birlashtirish siyosati izchil olib borildi. Uning hukmronlik yillari Fransiya monarxiyasida birlashtirish davri bo'lib, mamlakat daromadi yanada oshdi va hokimiyat mustahkamlandi. Filipp II inglizlarga qarshi urushlar olib borib, Normandiya, Men, Anju, Tyuren va Puatyening bir qismini Fransiya qo'shib oldi. Ushbu hududlarning qo'shib olinishi mamlakatning Atlantika okeani va La Mansh bo'g'oziga chiqishini ta'minladi. O'ltaneng eng muhim ikki daryosi Sena va

Luara havzasi hududlari batamom fransuz qiroli ixtiyoriga o'tdi. Filipp II Avgust Fransiya mulklarining kengayishi munosabati bilan mamlakatda ma'muriy islohot o'tkazdi. Ushbu ma'muriy islohotga ko'ra barcha qirol mulklari 20 viloyatga bo'lindi. Ushbu viloyatlarga mahalliy hokimlar rahbarlik qilib, ular o'z hududida sud qilish, soliq yig'ish, qo'shin to'plash, qiroлга hisobot berib turish vakolatlariga ega edi.

AHOLINING TOIFALARGA BO'LINISHI

Mamlakatni birlashtirish davomida butun aholi qirol fuqarolariga aylandi. Bu davrga qadar fuqarolarning aksariyat qismi yirik amaldorlar, gersog va graflar, shuningdek, boshqa zodagonlarga qaram bo'lgan. Shu davrda butun Fransiya aholisi huquq va majburiyatlari otadan bolaga meros bo'lib o'tadigan uch toifaga bo'lindi. Bulardan birinchi toifa – ruhoniylar, ikkinchi toifa – mulkdor zodagonlar bo'lib, ularning o'ziga xos imtiyozlari va huquqlari bor edi. Xususan, ular qiroлга soliq to'lashdan ozod etilgandi. Uchinchi toifa boy shaharliklar, dehqonlar, hunarmandlar va shahar kambag'allarini tashkil etar edi. Bu toifa orasida boy shaharliklar yetakchilik qilib, ularning vakillari ko'pincha qirol majlislariga chaqirib turilgan.



Qirol Filipp IV

IMTIYOZLARGA EGA TABAQLAR

I tabaqa

Ruhoniylar

II tabaqa

Zodagonlar

IMTIYOZLARGA EGA BO'LMAGAN TABAQLAR

III tabaqa

Boy shaharliklar • Dehqonlar • Hunarmandlar • Shahar kambag'allari

FRANSIYADA QIROL HOKIMIYATINING KUCHAYISHI VA CHERKOVGA QARSHI SIYOSATI

Mamlakatni birlashtirish va markazlashtirish siyosatiga qirol **Filipp IV** (1285–1314) katta hissa qo'shdi. Uning davrida Fransiya o'ta boy mulk hisoblangan Shampan va Ispaniya bilan chegaradosh Navarra, mamlakatning janubi-sharqidagi Lion viloyatlari qo'shib olinib, o'ltaneng 3/4 qismi birlashtirildi. Biroq Flandriya, Bretan, Akvitanika, Burgundiya hali Fransiya qo'shib olinmagan va mustaqil edi. Qirol asosiy e'tiborini Flandriyani bosib olishga qaratdi. Butun Yevropada qudratli kuchga ega bo'lgan Rim papasi **Bonifatsiy VIII** (1294–1303) qirol Filipp IV dan Flandriya harbiy yurishini to'xtatishni talab qildi. Shu sabab papa va qirol munosabatlari buzildi.

Filipp IV hukmronligi davrida Yevropada fransuzlar ta'siri sezilarli darajada kuchaydi. Uning Flandriya bilan urushi ham, cherkovdan soliq talab qilishi ham mamlakat xazinasini to'ldirish va armiyani mustahkamlashga qaratilgan edi. Bu vaqtda qirolning muntazam yurishlari sababli xazina bo'shab qolgandi. Amaldorlarga pul to'lash va urushlar olib borish uchun qiroлга ko'p mablag' zarur edi. Shuning uchun qirol Filipp IV barcha aholi toifalari bilan birga cherkovdan ham soliq to'lashni talab qildi. Bunga javoban papa Bonifatsiy VIII qirol Filipp IV ga nisbatan **anafema** (cherkovdan haydash va ibodat qilishni taqiqlash) e'lon qilishga kirishdi. Qirol papaga qarshi mulkdor feodallarni gijgijlab, Rimga o'z vakilini jo'natdi. Yollanma askarlar bilan papa huzuriga bostirib kirgan qirol vakilining haqorat va tahqirlarini ko'tara olmagan Bonifatsiy VIII tez orada vafot etdi. Qirol fransiyalik arxiyepiskopni Kliment V nomi bilan yangi papa etib saylanishiga erishdi. Yangi papa Rimda o'ziga nisbatan noroziliklar bo'lishidan xavfsirab Fransiya janubidagi Avinyon shahriga ko'chib o'tdi. Shu tariqa papalarning yana Rimga qaytishi uchun qariyb 70 yil kerak bo'ldi va bu davr, ya'ni 1309–1377-yillar tarixga **"papalarning Avinyon tutqunligi"** nomi bilan kirdi.



TARIX YONDAFTAR- CHANGIZGA KIRITING!

General shtatlar – (yalpi toifalar) Fransiyadagi 1302–1789-yillarda tabaqaviy vakillik muassasasi bo'lgan. Uning paydo bo'lishi shaharlarning o'sishi, ijtimoiy qarama-qarshiliklar va sinfiy kurashning keskinlashuvi bilan bog'liq bo'lib, qirol hokimiyatini mustahkamlashga, shuningdek, mamlakatda markazlashgan davlatning vujudga kelishiga xizmat qilgan.



General shtatlarda toifa vakillari o'rtasidagi o'zaro kelishmovchiliklar tufayli uning siyosiy kuchi va ta'sir doirasi mustahkam emas edi. Ya'ni ular qirolga kuchli ta'sir o'tkaza olmasdi. Biroq 1357-yilda General shtatlar o'z vakolatlarini oshirish, xususan, soliq yig'ish, soliqdan tushgan mablag'larni nazorat qilish va boshqa huquqlarni talab qildi. Qirol ushbu talablarni qabul qilishga majbur bo'ldi. Ammo o'rta va quyi palata vakillari hisoblangan dvoryanlar hamda mulkdor shaharliklar o'rtasida o'zaro hamfikrlikning yo'qligi sababli bu to'la amalga oshmadi. Bundan unumli foydalangan qirol o'z mavqeyini qayta tiklab oldi.

Shunday qilib, XIV asrda Fransiya toifaviy monarxiya – markazlashgan davlat vujudga keldi. Bunda qirol hokimiyati toifa vakillarining yig'ini va madadiga suyanar edi. Bu Fransiya markazlashgan davlat rivojlanishining birinchi bosqichi edi. Yuz yillik urushning boshlanishi butun mamlakatda markazlashgan hokimiyatni mustahkamlash tabiiy va zaruriy jarayon ekanligini ko'rsatdi.

General shtatlar yig'ilishi.
Parij. 1302-yil 10-aprel

GENERAL SHTATLARNING CHAQIRILISHI

Q irol Filipp IV papaga qarshi kurash olib borish jarayonida mamlakatdagi toifa vakillarining qo'llab-quvvatlashiga erishishga harakat qildi. Shuning uchun 1302-yili Parijning bosh ibodatxonasida uch toifa vakillari – ruhoniylar, dvoryanlar va mulkdor shaharliklardan iborat General shtatlarni chaqirdi. Shu vaqtdan boshlab qirollar mamlakatda har safar yangi soliqlar joriy qilish zaruriyati yuzaga kelganda General shtatlarni chaqira boshladi. Soliqlarning butun og'irligi dehqonlar va hunarmandlar bo'yniga tushar edi.

General shtatlar uch toifa vakillaridan iborat uch palataga bo'lingan edi. Ularning har biri alohida-alohida majlis qurar, qat'iy qaror qabul qilish uchungina birga yig'ilishar edi. General shtatlar muntazam chaqirilmay, shuningdek, qonunlarni qabul qilish huquqiga ham ega emas edi. General shtatlarning vazifasi soliqlarni joriy etishga ruxsat berish bilangina cheklanib qolgandi. Soliqlarni tasdiqlash jarayonida uch toifa vakillari orasida tez-tez janjallar yuzaga kelar edi. General shtatlarda qarorlar qabul qilish va ovoz berish jarayonida tenglik yo'q edi, ya'ni ruhoniylar va dvoryanlar bir ovozga qarshi ikki ovoz berish huquqiga ega edi. Shuning uchun ham uchinchi toifa vakillari hisoblangan mulkdor shaharliklar turli qarorlar qabul qilishda yon berishga majbur bo'lishardi.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Feodal tarqoqlik davrida Fransiya qanday o'zgarganligini tushuntiring.**
2. **Mehnat va ishlab chiqarishning hududiy taqsimoti hamda uning ahamiyatiga oid misollar keltiring.**
3. **Fransiyaning birlashtirish zaruriyati qanday sharoitda vujudga keldi?**
4. **Mamlakatning markazlashuvida aholining turli toifalari qanday rol o'ynadi?**
5. **Qirol Filipp IV kimligini aniqlang. U qanday ishlarni amalga oshirdi? General shtatlarning ahamiyati qanday bo'ldi?**
6. **Bu davrda o'lkamiz tarixida qanday jarayonlar yuz berayotgan edi?**



Puatye jangi

2-mavzu

Yuz yillik urush: sabablari, yakunlari va oqibatlari



SIZ BILIB OLASIZ:

- Yuz yillik urushning kelib chiqish sabablari. Urushning boshlanishi;
- Mamlakatda ijtimoiy-siyosiy vaziyatning og'irlashuvi. Jakeriya qo'zg'oloni;
- Angliya bilan sulh shartnomasining imzolanishi;
- Janna d'Ark. Urushdagi tub burilish. Urush yakunlari.

YUZ YILLIK URUSHNING KELIB CHIQISH SABABLARI VA BAHONASI

XIV asrda Angliya va Fransiya o'rtasida uzoq davom etgan urush boshlanib ketdi. Bu urush vaqti-vaqti bilan 1337–1453-yillar oralig'ida bo'lib o'tdi va tarixda "Yuz yillik urush" nomi bilan qoldi.

Urushning sababi nima edi? Fransiya mamlakatni birlashtirish uchun o'z hududida joylashgan Angliya-ga qaram Akvitanিয়া viloyatini o'ziga qo'shib olishga intilar, Angliya esa ulkan daromad manbayi bo'lgan Akvitanianing qo'ldan chiqarishni istamas edi. Akvitanianing Angliya-ga vino, meva, zotdor otlar olib ketilar va bu yerda ingliz feodallarining yer-mulk-lari ham bor edi. Shu bilan birga, Angliya Fransiya-dagi avvalgi mulklarini ham qaytarib olishga harakat qilar edi. Bundan tashqari, Flandriya viloyati masalasida ham Angliya va Fransiya o'rtasida raqobat paydo bo'ldi. Fransiya Flandriyani to'liq bo'ysundirishga harakat qilar, Flandriya sanoat hududi sifatida ingliz-larning jun xomashyosiz ish ko'ra olmas edi. Shu-ning uchun bu viloyatni Angliya siyosiy va iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlar edi. Bu esa Fransiya va Angliya siyosiy raqobatiga hamda muqarrar urushga sabab bo'ldi.

Urushga nima bahona bo'ldi? Kapetinglar sulolasidan bo'lgan Fransiya qiroli Filipp IV 1314-yilda vafot etdi. Uning o'rniga munosib nomzod topilmaganligi uchun Valua-lar xonadonidan bo'lgan Filipp VI qirolik taxtiga o'tirdi. Angliya qiroli Eduard III Fransiya qiroli Filipp IV ning qarindoshi, ya'ni qizining o'g'li – nabirasi edi. Filipp IV ning vafotidan so'ng Eduard III Fransiya taxtiga ochiqdan ochiq da'vogarlik qila boshladi. Biroq fransuz huquqshunoslari qadimiy qonunlar to'plami – "Sali haqiqati" asosida ayol tomonidan hi-soblangan avlod taxtga da'vogarlik qila olmaydi, degan xulosani beradi. Bu esa Yevropa tarixidagi eng yirik hisoblangan Yuz yillik urushga bahona bo'ladi.

YUZ YILLIK URUSHNING BOSHLANISHI

Urush rasman 1337-yilda Angliyaning Fransiya-ga hujumi bilan boshlandi. 1340-yilda inglizlar shiddatli harbiy harakatlarni amalga oshirib, fransuzlar flotini tor-mor kel-tirdi va dengizda hukmron flotga aylandi. Shundan so'ng ikki tomon quruqlikda 1346-yil Kresi yaqinida to'qnashdilar. Urush fransuz ritsarlarining shijoati bilan boshlandi. Ritsarlar jangga o'zlarining jangovar qobiliyatlarini namoyish qilish imkoniyati sifatida qaradilar. Biroq urushning asosiy janglarida ritsarlar emas, dehqonlardan iborat piyoda askarlar jasorat ko'rsatdilar. Bu Yuz yillik urush tarixida muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Kresi jangida fransuz qo'shinlari mag'lubiyatga uchradi. Eduard III boshchiligidagi ingliz qo'shini esa to'la g'alaba qozondi. Fransuzlar mag'lubiyatining asosiy sababi ritsarlarning umumiy safda turib jang qilish qobiliyatiga ega emasligi va qo'shinda tar-tib-intizomning yo'qligi edi. Ritsarlar va suvoriylar (otliq askarlar) harbiy tartib-intizom va qoidalarni tan olmas, jangda ularning har biri shaxsiy jasorat ko'rsatishga intilar



ESLAB KO'RING!

"Sali haqiqati" qan-day tuzilgan va u qaysi sulola davrida bitilgan? Ushbu hujjatda qanday huquqiy qonun-qoidalar bayon etilgan?



ga yetib kelgan fransuz qo'shinining asosiy kuchlari ham bu jangda tor-mor keltirildi. Ko'pchilik ritsarlar, feodallar va jangchilar bilan birga fransuz qirol loann Saxiy va uning o'g'li shahzoda Filipp ham inglizlarga asir tushib qoldi.

Bu g'alaba natijasida Fransiyaning g'arbiy va shimoliy qismi inglizlar qo'lga o'tib ketdi. Ingliz qo'shinlari Fransiyaning shimoliy hududlarini talab, poytaxt Parijgacha yetib bordilar. Urushdagi bu mag'lubiyat Fransiya toifalar o'rtasidagi nizo va ziddiyatlarni yanada keskinlashtirib, siyosiy tanglikni yuzaga keltirdi. Asir olingan qirolning o'rniga vaqtincha dofin Karl mamlakatni idora qila boshladi. Mamlakat xazinasi bo'shab qolgan, harbiylar o'rtasida tartib-intizom yo'q, tinimsiz urushlar xalqqa jabr yetkazar edi.

JAKERIYA QO'ZG'OLONI

Yuz yillik urush davrida Fransiya xaritasi, 1435-yil Yuz yillik urush. Puatye jangi

edi. Piyoda qo'shinlar esa yollanma ajnabiylardan iborat edi. Fransiyaning og'ir qurollangan zodagon otliqlari va ritsarlari piyoda askarlarni ijtimoiy jihatdan past deb bilishardi.

Angliya qo'shinlarida tartib-qoida mustahkam va puxta tashkil etilgan edi. Inglizlar qo'shinida otliq ritsarlar va yomen deb nomlangan erkin dehqonlardan iborat piyoda askarlar ham bor edi. Piyoda jangchilar katta kamonlar bilan qurollangan edi. Kamonchilar o'qni 600 qadam masofagacha ota olar, 200 qadamdan esa o'q ritsarni teshib o'tardi. Aynan shu omil, ya'ni intizomli kamonchilar ingliz qo'shinining g'alabasini ta'minladi. Shu bilan Yuz yillik urush Yevropada urush uslubini o'zgartirdi. Bu vaqtda ba'zi jangchilar o'rta asrlardagi ritsarlik ideallari ostida harakat qilishdi. Ritsarlar o'zlari bilan birga jang qilayotgan oddiy piyoda askarlar va kamonchilarga nafrat bilan qarashdi. Lekin uzun kamon urushni o'zgartirganda, bu tuyg'u ham o'zgardi. O'z davrida uzun kamon urush uslubini yangiladi. Fransuz ritsarlari o'zlarini yengilmas deb hisoblab, hujumga zo'r berishdi. Ingliz kamonchilari yaqinlashib kelayotgan fransuzlarga minglab o'qlarni yog'dirdilar va g'alaba qozondilar. Bu jangni ritsarlar qahramonligi emas, balki ingliz yomenining uzun kamoni yutgan edi.

Ingliz qirol Eduard III 1347-yilda Kale portini bosib oldi va bu port uzoq vaqtga qadar inglizlarning quruqlikdagi asosiy tayanch markaziga aylandi.

Yuz yillik urushdagi yana bir yirik jang 1356-yilda Luara daryosi janubidagi Puatye shahri yonida bo'lib o'tdi. Bu jangda fransuzlar son jihatidan ko'p bo'lsa-da, tarqoq holda harakat qildilar. Otliq ritsarlardan iborat qo'shin asosiy kuchlarning yetib kelishini kutmay jangga kirdi. Ular jangda birikmay, o'zboshimchalik bilan harakat qildilar, jangchilar oldinga o'tib ketar, safni buzar va bir-biriga xalaqit berardi. Ingliz kamonchilarining otgan o'qi fransuz otliqlarining safini buzib yuborar edi. Jang maydoni-



TARIX YONDAFTAR-CHANGIZGA KIRITING!

Flot – muayyan bir davlat yoki tashkilotning okean, dengiz, umuman, yirik suv maydonlarida harbiy, savdo va boshqa maqsadlarda harakatlar olib borish uchun mo'ljallangan tuzilmasi.

1358-yil Fransiyaning Bove viloyatida dehqonlar qo'zg'oloni boshlandi. Bu qo'zg'olon tarixga Jakeriya nomi bilan kirdi va qisqa vaqt ichida Sena, Marna, Il de Frans, Shampän viloyatlariga ham tarqaldi. Qo'zg'olonida 100 mingdan ortiq dehqonlar ishtirok etdi. Qo'zg'olonchilar qirol dehqonlarning azob-uqubatlardan bexabar, u oddiy xalqqa xayrixoh deb ishonar edilar. Shuning uchun ham o'z bayroqlariga qirolning gerbi – oq nilufar tasvirini tushirishgan edi.



TARIXIY MUSHOHADA

Nima uchun Jakeriya?

Yuz yillik urush davrida oddiy xalq yanada ko'p jabr-sitam ko'rdi. Ular yangidan yangi soliqlar to'lashga majbur qilindi. O'sha vaqtda keng tarqalgan Jak ismini zodagonlar oddiy dehqonga nisbatan kamsitish ma'nosida ishlatar edi. Zodagonlar "Sodda Jakning yelkasi keng, har qanday og'irlikni ko'tara oladi", deb masxara qilishardi. Qo'zg'olonida asosan oddiy aholi va dehqonlar ishtirok etganligi uchun ham bu harakat tarixga Jakeriya nomi bilan kirdi.

Qo'zg'olonchilarning zodagonlarga nafrati shu qadar kuchli ediki, ularni bitta ham qoldirmay qirib tashlashga tayyor edilar. Qo'zg'olonida **Gilyom Kal** ismli dehqon boshchilik qildi. Qo'zg'olon tartibsiz, uyushmagan va tayyorgarliksiz boshlanib, uning aniq dasturi va harakat rejasi ham yo'q edi.

Qirol va zodagonlar qo'zg'olonchilarga qarshi ulkan qo'shin to'pladi. Harbiy tayyorgarlikka ega bo'lmagan va yaxshi qurollanmagan dehqonlar kuchli qo'shinga qarshi tura olmas edi. Oxirgi jang oldidan ularning yetakchisi Gilyom Kal sulh tuzish bahonasida aldov yo'li bilan asir olindi. Zodagonlar uning boshiga qizdirilgan temir halqa kiydirishdi va "biz jaklar qiroliga shunday tarzda toj kiydiramiz", deb mazax qilishdi. Yo'l boshchisiz qolgan dehqonlar qo'shini ritsarlar tomonidan tor-mor etildi, 20 ming dehqon qirib tashlandi. Shu tariqa qo'zg'olon mag'lubiyatga uchradi.

ANGLIYA BILAN SULH SHARTNOMASINING IMZOLANISHI




Sulh imzolanishi

Fransuz qirol Karl V 1360-yilda inglizlar bilan sulh imzoladi. Sulh shartnomasi og'ir shartlarni o'z ichiga olib, unga ko'ra Fransiyaning shimoli va g'arbida-gi ko'pgina hududlar Angliya tasarrufiga o'tdi. Fransiya urushni davom ettirishga qodir emasligidan bu shartlarni qabul qilishga majbur edi. Biroq vaqt nuqtayi nazaridan bu sulh Fransiya o'zini o'nglab olishga imkon yaratdi. Bu davr oralig'ida qirol Karl V o'zboshimcha mahalliy zodagonlarni bo'ysundirdi, puxta harbiy ta'lim ko'rgan qo'shin to'pladi, kuchli flot tashkil etdi. Bu islohotlar o'z samarasini berib, 1369-yilda bo'lib o'tgan jangda Angliya mag'lubiyatga uchradi. Biroq qirol Karl V vafotidan so'ng Fransiya vaziyat yana og'irlashdi. Urush qayta boshlandi. 1415-yilda Azenkur yaqinida bo'lib o'tgan jangda fransuzlar qo'shini qaqshatqich mag'lubiyatga uchradi. Inglizlar Fransiyaning shimolini egalab, Parijga bostirib kirdilar. 1420-yilda Fransiya uchun haqoratomuz Trua shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra Fransiya va Angliya birlashtirilib, ingliz shahzodasi qirol bo'lishi belgilab qo'yildi. Mamlakat og'ir ahvolda qoldi. Shunday vaziyatda 1428-yilda inglizlar Fransiyaning muhim strategik shahri Orleanni qamal qilishga kirishdilar. Fransiyaning ahvoli Orleandagi g'alaba yoki mag'lubiyatga bog'liq bo'lib, mamlakat taqdiri ushbu shahar ostonalarida hal bo'lmoqda edi.

JANNA D'ARK

Fransuz qo'shinlari g'alabaga ishonchini yo'qotgan, zodagonlar tahliliga tushib qolgan, oddiy xalq hayoti esa ayanchli ahvolda edi. Orlean shahri qamali ikki yuz kun davom etib, shahar o'zini o'zi mudofaa qilib turdi.

Shunday sharoitda dushmanlarga qarshi kurashda xalq qahramoni sifatida oddiy dehqon qizi **Janna d'Ark** maydonga chiqdi. Janna d'Ark Fransiyaning Domremi qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Bolaligida uni Jannet deb chaqirishardi. Keyinchalik unga Janna d'Ark nomini berishgan. Tarixchilarning ta'rifiga ko'ra, Janna d'Ark baland bo'yli, baquvvat va bardoshli bo'lgan. Uning qishlog'iga bir necha marotaba hujumlar uyushtirilgan va u bolaligidan boshlab oddiy xalqning azob-uqubatini ko'rib o'sgan. Keyinchalik u vatanini ozod qilishni niyat qildi, hatto bu istakni "uning ko'ngliga Xudo solganligini" ta'kidladi. Fransiyaning vaqtinchalik yosh qirol Karl VII ga maktub yozib taxtga



Janna d'Ark



Janna d'Ark. Orleanning ozod qilinishi

Janna d'Ark Orleanga yetib kelib inglizlarga qarshi shiddatli janglarni boshlab yubordi. Uning o'zi janglarda mardlik va shaxsiy namuna ko'rsatar, askarlarni ruhlantirar edi. 1429-yilda Orlean shahri qamaldan ozod qilindi va bu Yuz yillik urushda tub burilish yasadi. Xalq Janna d'Arkka "**Orlean qizi**" deb nom berdi.

Janna Orlean shahridagi g'alabasi bilan Yuz yillik urush oqimini Fransiya foydasiga keskin o'zgartirishga muvaffaq bo'ldi. Uning ishtirokida Fransiyaning qator viloyatlari ozod qilindi. Janna d'Arkning taklifi bilan qirol **Karl VII** (1422–1461) Reims shahriga borib, tantanali ravishda taxtga o'tirdi. Biroq jasur qizning ortib borayotgan obro'si hukmron toifa vakillarini tashvishga solib qo'ydi. Ular Janna d'Arkdan qutulish yo'lini izlay boshlashdi, unga hayotini xavf ostiga qo'yadigan vazifalar topshira boshladilar. 1430-yilda jasur Orlean qizi Kompen qal'asi uchun bo'lgan janglarda burgundlarga asir tushib qoldi. Burgundlar Janna d'Arkni inglizlarga katta pul evaziga sotdilar. Fransuz qirol Karl VII uni qutqarishga harakat ham qilmadi. Inglizlar uni inkvizitsiya sudiga topshirdi. Cherkov sudi Janna d'Arkni o'limga hukm etdi. Janna d'Ark 1431-yil 30-may kuni Ruan shahrida gulxanda yoqildi. Oradan vaqt o'tib, 1456-yilda ushbu sud qarori noqonuniy deb topildi va Janna d'Ark oqlandi.

URUSH YAKUNLARI

Janna d'Ark halok bo'lganidan keyin xalqning ozodlik urushi yanada kuchayib ketdi. Normandiyada o'n minglab ko'ngillilar qahramonona jang qildilar. Parijda dushmanlarga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Fransiya poytaxti ozod qilindi, 1436-yilda qirol Karl VII Parijga kirib keldi. Fransuz qo'shinlari inglizlarni mamlakatdan haydab, Angliya bosib olgan hududlar birin-ketin ozod qilindi. Shundan so'ng Yuz yillik urush 1453-yilda inglizlarning Bordoda so'zsiz taslim bo'lishlari va sulh imzolanishi bilan yakunlandi. Fransiya o'ziga qarashli barcha hududlarini qaytarib oldi. Angliya Fransiya hududida faqat Kale port shahrigina 1558-yilgacha qo'lda tutib qoldi. Yuz yillik urush markazlashgan fransuz davlatining qaror topishida muhim bosqich bo'ldi.

QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN


Yuz yillik urushning eng qizg'in davrida Fransiya qiroli Karl VI (1380–1422), Movarounnahrda esa Sohibqiron Amir Temur hukmronlik qilardi. Ular o'rtasida oliy darajada diplomatik yozishmalar olib borilgan.

Amir Temur Sultoniya shahrini zabt etganidan so'ng arxiyepiskop Ioann Amir Temurning Yevropadagi ishonchli elchisi sifatida diplomatik munosabatlarda katta rol o'ynagan.

1403-yilda Parijda bo'lgan Ioann Amir Temurning muhri bosilgan va zarhal

harflar bilan bitilgan maktubini Fransiya qiroli Karl VI ga topshiradi. Maktubda "Biz Sizning davlatingiz doimo gullab-yashnashini do'stona tilab qolamiz..."

Sizning savdogarlaringiz biz tomoniga kelsinlar va biz ularni izzat-ikrom



Amir Temurning Fransiya qiroli Karl VI ga yozgan maktubi

bilan kutib olaylik va bizlarning savdogarlarimiz Sizlar tomonga borib, o'z izzat-ikromlarini topsinlar. Axir dunyoni savdogarlar farovon qiladilar", degan so'zlar bitilgan.

O'z navbatida, Fransiya qiroli Karl VI ham Amir Temurga 1403-yilning o'zida javob maktubini yo'llaydi. Ushbu maktubda "olampanoh, muzaffar hukmdor Temurbekka salom va tinchlik tilaymiz. Siz zoti oliylariga ko'p xristianlarga ko'rsatgan marhamat va do'stligingiz uchun minnatdorchilik bildiramiz. Kezi kelganda biz ham o'z navbatida Sizning odamlaringizga bundan ortiq marhamat ko'rsatishga tayyormiz", degan so'zlar yozilgan.

(Lyusyen Keren va Akmal Saidovning "Amir Temur va Fransiya" kitobidan).

ATAMALAR IZOHI



Dofin – XIV asrdan boshlab qirolning avlodidan bo'lgan taxt vorisi, rasman taxtga chiqish uchun toj kiyish marosimi o'tkazilgunga qadar vaqtinchalik qiroli.

Yomen – Angliyada ingliz dehqonlarining asosiy qismini tashkil qilgan erkin hisoblangan kichik yer egalari. Ular zodagonlardan farqli ravishda yerga ishlov berish bilan mustaqil shug'ullanishgan. XV asrga kelib mustaqil xo'jalik yurituvchi barcha dehqonlar, egasining huquqiy maqomidan qat'i nazar yomenlar deb atala boshlagan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuz yillik urushning sabablari va oqibatlari qanday kechdi?
2. Yuz yillik urush davrida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat qanday edi?
3. Yevropada Yuz yillik urush sodir bo'layotgan vaqtda Movarounnahrda qanday jarayonlar kechayotgan edi? Misollar keltiring.



3-mavzu

Fransiyanibirlashtirishning tugallanishi va uning natijalari



SIZ BILIB OLASIZ:

- Yuz yillik urushdan keyingi Fransiya;
- Qirolning o'zboshimcha feodallarga qarshi kurashi;
- Fransiya markazlashgan davlatning qaror topishi;
- Mamlakatni birlashtirish natijalari.



YUZ YILLIK URUSHDAN KEYINGI FRANSIYA

Lyudovik XI va Karl Jasur

Urush Fransiya iqtisodiyoti, xo'jaligi va kishilar turmush tarziga jiddiy ziyon yetkazdi. Ko'plab shahar va qishloqlar vayron bo'lgan, savdo-sotiq, dehqonchilik va hunarmandchilik izdan chiqqan edi. Biroq dehqon va hunarmandlar tezda xo'jalikni tiklashga harakat qildilar. Urush vaqtida tashlab qo'yilgan yerlar ishga solinib, dehqonchilik yuksaldi, dehqonlar qo'shni o'ikalarga ham g'alla sota boshladilar. Hunarmandlar ham ishlarini yo'lga qo'yib, mamlakatda temir eritish, mato to'qish va boshqa ishlab chiqarish sohalari yanada rivojlandi. Viloyatlar o'rtasida mehnat taqsimoti yanada kuchayishi savdo-sotiqning jonlanishiga sabab bo'ldi. Xususan, Fransiya shimolidan janubga surp, jun, temir va tuz keltirilar, janubdan shimolga esa zaytun moyi, vino olib borib sotilar edi. Shuningdek, mamlakatda asta-sekin xalqaro savdo ham yuksalib bordi. Chunki Fransiyaning markazlashgan davlatga aylanishi mamlakat iqtisodiyotining ravnaq topishiga yordam berdi.

QIROLNING O'ZBOSHIMCHA FEODALLARGA QARSHI KURASHI

Yuz yillik urush davrida Fransiya o'zboshimcha mahalliy zodagonlar mamlakat hududining katta qismini o'zaro bo'lib olishgan edi.

Yuz yillik urushdan keyin 1471–1475-yillarda Fransiya qiroli **Lyudovik XI** (1461–1483) va Burgundiya gersogi Karl Jasurning o'zaro to'qnashuvlari bo'lib o'tgan va tarixga Frank-Burgund urushlari nomi bilan kirgan.

Qiroli Lyudovik XI itoatsiz feodallarga qarshi kurash olib borib, mamlakatni birlashtirishni boshladi.

Lyudovik XI Fransiya tarixidagi eng mashhur va atoqli qirollardan biri bo'ldi. U o'z zamonasining mashhur siyosatdoni, mohir diplomati edi. U hukmronligining asosiy qismini yirik feodallarga qarshi kurashda o'tkazdi. Unga qarshi

zodagonlar **“Jamiyat baxt-saodati”** deb nomlangan ittifoq tashkil etgan va uning rahbari Burgundiya gersogi Karl Jasur edi. U faoliyati davomida doimiy urushlar olib borar, turli gersog va grafliklar yerlarini bosib olar, dehqonlar mulklarini talab, o'zlarini ishlatish uchun

Qiroli Lyudovik XI

haydab ketar edi. Karl Jasur “men Fransiyaning shu qadar yaxshi ko'ramanki, mamlakatda bitta qiroli o'rniga oltita qiroli bo'lishini xohlayman” der edi. Uning nufuzi oshib borishi, shubhasiz, qirolik hokimiyatiga xavf tug'dirar edi.

O'z navbatida, qiroli Lyudovik XI ham raqiblarga qarshi kurashda har qanday vositalar, ya'ni tahdid, aldov, yolg'on va diplomatiyani ishga solar edi. U “Siyosat va uddaburonlikni yaxshi bilmagan kishi qiroli bo'la olmaydi”, degan g'oya bilan ish ko'rar edi.

Lyudovik XI va Karl Jasur o'rtasidagi kurash uzoq davom etdi. Bu urushda qiroli sharmandalarcha mag'lub bo'ldi. Gersog Karl Jasur qo'ygan shartlarga asosan sulh imzolandi. Biroq shundan so'ng qiroli Lyudovik XI ayyorona yo'l tutib, gersogning qo'shinlari va ishongan kishilarini o'z tarafiga og'dirdi. Ularni o'z xo'jayini gersogga qarshi giygiladi. Oqibatda Burgundiya gersogi Karl Jasur o'ldirildi. Qiroli asosiy raqibi tor-mor etilganidan so'ng qolgan raqiblariidan birin-ketin shafqatsiz o'ch oldi. Natijada Fransiya bu davrda yuz bergan o'zaro qarama-qarshiliklarga yakun yasaldi. Urushda qiroli to'liq g'alaba qozondi.

Shundan so'ng Karl Jasurga tegishli katta yer-mulklar qiroli Lyudovik XI ixtiyoriga o'tdi. Fransiya janubidagi Marsel shahri ham butunlay qiroliga bo'ysundirildi. Birgina Bretan gersogligi bu davrda o'z mustaqilligini saqlab qoldi. Lekin Lyudovik XI ning vorislari davrida bu hudud ham qiroli yer-mulklari qatoriga kiritildi. Shunday qilib, XV asr oxiriga kelib Fransiyaning birlashtirish jarayoni yakunlandi.

BUNI YODDA SAQLANG!



Feodal tarqoqlik yoki siyosiy parokandalik – bu davlatning mayda-mayda mulklarga yoki siyosiy va iqtisodiy jihatdan mustaqil hududlarga bo'linib ketishi hamda ularning muayyan bir masalalarda o'z xohishlaricha ish tutishidir. Feodal tarqoqlik yoki siyosiy parokandalik bu o'zaro urushlarning asosiy manbasi bo'lib, butun mamlakatning parchalanishiga yoki boshqa bir davlat qaramligiga tushishiga olib kelishi mumkin.

FRANSIYADA MARKAZLASHGAN DAVLATNING QAROR TOPISHI

Fransiyaning birlashtirish jarayonida qiroli vakolatlari kuchayib, mutlaq hokimiyat qaror topa boshladi. Qiroli Lyudovik XI mamlakatda oqilona siyosat olib bordi. U ritsarlar va yollanma askarlardan tashkil topgan doimiy qo'shin tuzdi. Qo'shin ta'minoti uchun aholidan yig'ib olinadigan yillik soliq joriy qilindi. Gersog va grafliklar o'z mulklarini saqlab, o'zlari tasarruf qilsalar-da, siyosiy mustaqilligi mavjud emas edi. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatini qirolning o'zi belgilar, davlat ishlarini o'zi xohlaganidek idora etar, urush e'lon qilish, sulh tuzish masalalarini ham uning o'zi hal qilar edi.

Davlat amaldorlari qiroldan maosh olib ishlar va unga so'zsiz itoat etardi. Shu sababdan Lyudovik XI hazil tariqasida “men hamma maslahatchilarni otimning egarida olib yuraman” derdi. U davlatni o'z xizmatidagi amaldorlar yordamida boshqarar edi. Shuning uchun uning davrida General shtatlarni chaqirishga ham ehtiyoj qolmadi. Lyudovik XI qirolligi davrida General shtatlarni bir marotaba chaqirdi xolos.

Shunday qilib, Fransiya markazlashgan davlat XV asr oxiriga kelib yanada mustahkamlandi, butun mamlakat yagona markaziy hokimiyatga – qiroli hokimiyatiga bo'ysundirildi. Fransiya toifaviy monarxiyadan mutlaq monarxiyaga aylandi.

MAMLAKATNI BIRLASHTIRISH NATIJALARI



TARIX YONDAFTAR- CHANGIZGA KIRITING!

Markazlashgan davlat –
butun mamlakatning
yagona hokimiyat qo'l
ostida birlashtirilishi.

Fransiyaning birlashtirilishi natijasida kuchli qirol hokimiyati yuzaga keldi. Dehqonlar, hunarmandlar va shaharliklar qirolga soliq to'lay boshladilar. Kuchli qirol hokimiyati feodallarning qaram dehqonlar ustidan hukmronligini mustahkamladi. Qirol dehqonlar qarshiligini qo'shin va amaldorlar yordamida bostirar edi.

Mamlakatda feodal tarqoqlikka barham berildi. Gersog va graflarning ko'pchiligi yer-mulklarini o'zlarida saqlab qolgan edilar, biroq urushdan avvalgi o'zboshimchaligi va siyosiy mustaqilligi yo'q edi. Feodallar o'zboshimchilik bilan qishloq va shaharlarni talamaydigan bo'ldi. Savdogarlar butun mamlakat bo'ylab xavfsiz savdo-sotiq olib bora boshladi.

Qirol shaharlarning yuksalishi va savdo-sotiqning rivojlanishiga homiylik qildi. Italiyadan ipak gazlama to'qiydigan mohir ustalar olib kelindi. Ular Fransiyaning Lion shahriga joylashtirildi. Shu davrdan boshlab Lion Fransiyaning shoyi ishlab chiqarish va to'qimachilik markaziga aylana boshladi. Fransiyada yagona pul, o'lchov

va og'irlik birliklari joriy etildi. Mamlakatda ulkan savdo floti tashkil qilindi. Qirol homiyligi va yordamida fransuz savdogarlari turli xorijiy mamlakatlarda ham savdo-sotiq ishlarini olib bordi.

ATAMALAR IZOHI



Mutlaq monarxiya – davlatda hukmdorning yakka boshqaruv shakli. Bunda monarx cheklanmagan hokimiyat va vakolatlarga ega bo'ladi.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Yuz yillik urushdan keyin Fransiya xalqning ijtimoiy ahvoli qanday edi?
2. Nima uchun mamlakatni birlashtirish zaruriyati vujudga keldi?
3. Yuz yillik urushdan keyin Fransiya iqtisodiyoti, xo'jaligi va kishilar turmush tarzi qanday o'zgarganligini tushuntiring.
4. Frank-Burgund urushlari, qirolning o'zboshimcha feodallarga qarshi kurashi va uning siyosiy ahamiyatini tahlil qiling. Qirol Lyudovik XI va gersog Karl Jasur faoliyatiga baho bering. Ular qanday ishlarni amalga oshirdi?
5. Fransiya markazlashgan davlatning qaror topishi mamlakat hayotiga qanday ta'sir qildi deb o'ylaysiz?
6. Fransiyaning birlashtirish qanday ijobiy va salbiy oqibatlarga olib keldi?



Qirol Genrix I

4-mavzu

Angliyada markazlashgan davlatning tashkil topishi



SIZ BILIB OLASIZ:

- Angliyada qirollik hokimiyati: ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- “Erkinlikning buyuk xartiyasi”;
- Angliya parlamenti.

ANGLIYADA QIROLLIK HOKIMIYATI: IJTIMOIY-SIYOSIY JARAYONLAR



ESLAB KO'RING!

- Angliyada ilk davlatlar qanday shakllandi?
- Qirol Alfred Angliya tarixida qanday islohotlarni amalga oshirdi?
- Normandiya gersogi Vilgelm I Angliyani qachon istilo qildi?

Normandiyalik Vilgelm I ning vorislari davrida yirik feodallar mamlakatni ko'p yillar davom etgan o'zaro urushlarga duchor qildi. Angliyalik zodagonlar ham Fransiya-dagi gersog va graflar kabi siyosiy va iqtisodiy mustaqillikni qo'lga kiritishni, yer-mulklarini mutlaq o'zlari idora qilishni xohlar edi. Ammo Fransiya-dan ko'ra Angliyada qirol hokimiyatini mustahkamlash uchun sharoit yaxshi edi. Mamlakatning ichki va tashqi savdo-sotiq ishlari rivojlanib borardi.

London nafaqat Angliyaning, balki Yevropaning muhim savdo markaziga aylandi. Ingliz shaharlari-ning ko'pchiligi qirolga qarashli yerlarda joylashgan, shaharliklar qirolni qo'llab-quvvatlar edi. Chunki shaharliklar va dehqonlar yuzta xo'jayindan ko'ra bitta xo'jayinni afzal deb bilar edi.

Dehqonlar ham feodallarga qarshi kurashni to'xtatmay yanada avj oldirdi. Ularning ko'pchiligi o'z xo'jayinlaridan o'rmonlarga qochib ketar va guruh-guruh bo'lib zodagonlarga, yepiskop va amaldorlarga hujum qilardi. Xalq ularni "erkin merganlar" deb atardi. Dehqonlar ularni yaxshi ko'rar va qo'llab-quvvatlardi. XII–XIV asrlarda xalq orasida ularning qahramonligi, jasurligi va ajoyib sarguzashtlari to'g'risida qo'shiqlar hamda balla-

dalar to'qilgan edi. Ingliz balladalarining eng mashhurlari va qiziqarlisi mazlum xalqning sevimli qahramoni, zolim zodagonlarning raqibi Robin Gud haqida edi.

Qirol ritsarlar va shaharliklar yordamida yirik feodallarga qarshi kurashda g'olib chiqdi. Biroq qirol Genrix II ning vorislari Richard I Sheryurak va Ioann davrida qirol hokimiyati zaiflashib qoldi. Buning ustiga qirol Ioanning papa Innokentiy III bilan Kenterberi grafligi arxiyepiskopini saylash masalasida munosabatlari buzildi. Papa qirol Ioanni cherkovdan quvib, butun Angliyada ibodat qilishni taqiqladi. Taxtdan ayrilish xavfi ostida qolgan va aholining qo'llab-quvvatlashiga ko'zi yetmagan qirol taslim bo'lishga majbur bo'ldi. U o'zini papaning vassali deb tan olish va har yili uning xazinasiga ming funt sterling soliq to'lash majburiyatini oldi.



BILAG'ONLAR UCHUN

Angliya – qadimgi ingliz tilidagi "England" so'zidan olingan bo'lib, "**angllar yeri**" ma'nosini bildiradi. Angllar ilk o'rta asrlarda Buyuk Britaniya-dagi joylashgan german qabilalaridan biri edi.



Papa bilan to'qnashuvdagi mag'lubiyat qirol Ioanning nufuzini tushirib yubordi. Baronlar, yepiskoplar, ritsarlar va shaharliklar o'rtasida qirolga nisbatan norozilik kuchaydi. Soliqlar-ning oshirilishi qirolni mayda va o'rta mulkdorlar yordamidan mahrum etdi. Fransuzlar bilan quruqlikda yangi urushga tayyorgarlik esa ritsarlarning qirolga qarshi chiqishiga sabab bo'ldi.

Natijada mamlakatda 1215-yilda qirolga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. Yirik zodagonlar qo'zg'olonga rahbarlik qildi, ritsarlar va shaharliklar ularga qo'shildi. Poytaxt London aholisi qo'zg'olonchilarga shahar darvozasi-ni ochib berdi. Qo'zg'olonchilar qirol Ioanni asir olishdi.

QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN

Robin Gud XII–XIV asrlarga tegishli ingliz balladalarida qahramoni. Robin Gud haqidagi eng yorqin epizodlarning aksariyati u va uning hamrohlari Sher-vud o'rmonida ochko'z hamda berahm kishilarni, badavlat cherkov yer egalari-ni talon-toraj qilish-lari va boyliklarni kambag'allarga ulashishlari bilan bog'liq.

Ularning eng ashaddiy raqibi Nottingem sherifi edi. Robin Gud barcha kishilarga, ayniqsa, kambag'al-larga xushmuomalalik bilan munosabatda bo'l-gan.

Aksariyat xalq og'zaki ijodi namu-nalarida an'anaviy ravishda Robin Gud yashil rangli kiyimda tasvirlanadi. Uning hokimiyatga qarshi qo'zg'oloniga ov

huquqlarini cheklab qo'ygan o'rmon qonunlariga nisbatan xalqning noroziligi katta turtki bo'lgan. Tarixchilar Robin Gud haqiqatan tarixiy shaxs ekanligini isbotlash uchun ko'p uringanlar.

U qirol Richard I Sheryurak davrida yashagan de-gan qarashlar mavjud.

Ba'zi tarixchilar uni mayda bezori, keyin-chalik esa adolat va zulmga qarshi harakatlari bilan xalq qahramoniga aylangan tarixiy shaxs deb hisobla-shadi.

Robin Gud haqidagi afsonalar ingliz adabi-yoti va madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatdi. U haqda ko'plab

balladalar, romanlar yozilgan, filmlar suratga olingan. Robin Gud tarixiy va badiiy adabiyotlarda qirol Artur kabi mashhurlikka erishgan.





Qirol Ioann

ERKINLIKNING BUYUK XARTIYASI

Qirolo Ioann 1215-yilda “**Erkinlikning buyuk xartiyasi**” deb nomlangan hujjatga imzo chekishga majbur bo’ldi. Xartiya lotin tilida yozilgan bo’lib, 63 moddadan iborat edi.

“Erkinlikning buyuk xartiyasi” bu huquqiy davlat tarixidagi muhim hujjatdir. Ushbu hujjatga ko’ra qirolo qonunlarga muvofiq hukmronlik qilishi kerakligiga rozi bo’ldi. Xartiya qirolni ba’zi vakolatlarini chekladi.

Unga asosan, Buyuk kengash rozilgisiz qirolo mamlakatda soliq yig’a olmas edi. Biror jinoyatda ayblangan erkin kishilar davlat tomonidan tayinlangan sud yoki o’z jamoasi tomonidan adolatli sudlanish huquqiga ega edilar. Shuningdek, qirolo, amaldorlar, yirik zodagonlar, erkin hamda qaram kishilarning ma’lum huquq va majburiyatlariga ega ekanligi ta’kidlangan edi. “Erkinlikning buyuk xartiyasi” insonlarning ma’lum huquq va majburiyatlarining mavjudligi, hukumatning kuchi cheklanganligi hamda hokimiyat xalqqa xizmat qilishi kerakligi haqidagi g’oyalarni shakllantirishga yordam berdi.

ANGLIYA PARLAMENTI

Qirolo Ioann “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ni imzoladi, lekin uning shartlari va moddalarini bajarishni xohlamadi. Undan keyingi qirollar ham, xususan, uning vorisi Genrix III ushbu Xartiyaga deyarli rioya qilmadi. Aksincha, soliqlarni yanada oshirib, yirik mulkdor zodagonlar, ritsarlar, shaharliklar va oddiy aholini o’ziga qarshi qilib qo’ydi. Natijada yirik mulkdor Simon de Monfor boshchiligidagi norozilik harakati boshlanib, qirolo va uning o’g’li shahzoda Eduard asir olindi. Simon de Monfor bir qancha vaqt Angliya boshqaruvini o’z qo’liga oldi. U **1265-yilda** uch toifa vakillari – baronlar, ruhoniylar, har bir graflikdan ikkitadan ritsarlar hamda har bir shahardan ikkitadan vakil ishtirok etadigan majlis chaqirdi. Bu majlis jahon tarixiga **parlament** nomi bilan kirdi.

Simon de Monfor Angliyani uzoq boshqarish nasib qilmadi. Shahzoda Eduard asirlikdan qochib, tez orada taxtga o’tirdi. U otasining xatolarini tushunib, ularni takrorlamaslikka harakat qildi. Uning davrida 1295-yildan boshlab parlament doimiy chaqirilib turiladigan bo’ldi. 1297-yilda parlamentga soliqlarni tasdiqlash huquqi berildi. XIV asrdan qonunlar chiqarish va siyosiy ishlar, ya’ni qirolo vazirlari tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar bo’yicha Oliy sud huquqini qo’lga kiritdi. Keyinchalik bu parlament “**namunalii parlament**” degan nom oldi.

1343-yilda parlament ikki palataga bo’lindi. Yuqori palata lordlar palatasi deb nomlanib, unda oliy toifali


Magna Carta of King John, AD 1215



TARIXIY MUSHOHADA

“O’z qabilasining jamoaviy hukmi va mamlakat qonunisiz hech bir ozod odam qamoqqa tashlanmaydi, hibsga olinmaydi, qonundan tashqari deb topilmaydi, badarg’a qilinmaydi yoki biron-bir tarzda yo’q qilinishi mumkin emas”.

“Erkinlikning buyuk xartiyasi”dan



Qirol Ioann “Erkinlikning buyuk xartiyasi”ga imzo chekmoqda

TARIXIY MUSHOHADA

1. *Parlament paydo bo’lgan davrdan hozirgi kungacha qadar uning faoliyati va shaklida qanday o’zgarishlar yuz berdi? Qaysi jihatlar saqlanib qoldi?*
2. *Jahon xalqlari va davlatlari hayotida parlamentning bugungi ijtimoiy ahamiyati haqida tarixiy mushohada yuriting. Misollar keltiring.*
3. *Bugungi zamonaviy dunyoda parlament davlatlar taraqqiyotida qanday ahamiyatga ega?*

ruhoniylar hisoblangan yepiskoplar, abbatlar hamda qirolo tomonidan maxsus taklif etilgan zodagonlar majlis o’tkazganlar. Quyi palata umumpalata deb nomlanib, har bir graflikdan ikki nafar ritsar va shaharlardan ikki nafar vakil majlis o’tkazgan.

Angliya parlamentining Fransiya General shtatlariga qaraganda davlat ishlariga ta’siri kuchliroq edi. Chunki Angliyada Fransiya kabi toifalar o’rtasida nizolar keskin emas edi. Shuning uchun quyi palata parlamentda o’z rozilgisiz soliqlar joriy etilmasligi huquqini qo’lga kiritdi.

Shunday qilib, XIII–XIV asrlarda Angliyada ham Fransiya kabi toifaviy monarxiya sifatida markazlashgan davlat qaror topdi.

ATAMALAR IZOHI



Xartiya – lotincha so’zdan olingan bo’lib, qog’oz, yorliq ma’nosini bildiradi. U o’rta asrlarda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy ahamiyatga ega bo’lgan, jamiyatning ma’lum bir huquqlarini ifodalagan hujjatni anglatadi.

Parlament – fransuz tilidan olingan bo’lib, gapirmoq, so’zlam oq ma’nosini bildiradi.



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. *XIII asrda Angliyadagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat qanday edi?*
2. *“Erkinlikning buyuk xartiyasi”da aholining turli tabaqalari huquqlari qanday ifodalangan?*
3. *Angliya parlamenti ahamiyati va jahon parlamentlari haqida nimalarni bilasiz?*
4. *Nima uchun parlament Angliyada paydo bo’lgan bo’lsa-da, fransuzcha so’zdan olingan?*
5. *Bu davrda Movarounnahrda qanday qonunlar amal qilgan?*



Qirol Richard II

5-mavzu

XIV–XV asrlarda Angliya



SIZ BILIB OLASIZ:

- Angliyaning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyoti;
- Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishi;
- Uot Tayler qo'zg'oloni;
- Angliyada sulolaviy kurashlar. "Oq va qizil gullar urushi".

ANGLIYANING IQTISODIY VA IJTIMOYIY TARAQQIYOTI

Yuz yillik urush Angliya iqtisodiyotiga katta zarar yetkazgan bo'lsa-da, XIII asrning ikkinchi yarmi va XIV asrda shahar hamda qishloqlar qayta rivojlana boshladi. Angliya Flandriya va Florensiya shaharlariga movut eksport qilardi. Savdogarlar ichki va tashqi savdoning rivojlanishiga hissa qo'shishdi. Bu davrda Angliyada mahalliy sanoat ishlab chiqarishi juda yaxshi rivojlana boshladi. Shaharlar, xususan, Londonda aholining o'sishi qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talabni oshirib yubordi. Bu esa shahar va qishloqlar hayotidagi uzviylikni ta'minladi.

Ingliz lordlari o'z yerlarida qaram dehqonlarning ishlab berish majburiyatini pul hisobida yuritishga o'tdilar. Lordlar o'z yerlarini ijaraga berib, ijara haqini pul ko'rinishida olardilar. Asta-sekin jamiyatda dehqonlarning qo'lida ortiqcha pul va mahsulot paydo bo'lishi natijasida qaram dehqonlar ozod dehqonlarga aylanishdi. Biroq ba'zi grafliklarda, jumladan, Kent grafligida dehqonlarning yerlari juda kam bo'lib, yirik mulkdorlar katta-katta yerlarni egallab ola boshladilar. Bu dehqonlar orasida norozilikka sabab bo'ldi. Buning ustiga Yevropada dahshatli qora o'lat (vabo) tarqalib, mamlakat aholisining katta qismi qirilib ketdi. Ishchi kuchi kamayib, shahar va qishloqlarda rivojlanish to'xtab qoldi.



IJTIMOYIY ZIDDIYATLARNING KUCHAYISHI

Mamlakatda iqtisodiy ahvolni yaxshilash hamda davlat xazinasini to'ldirish maqsadida 1377-yili ingliz parlamenti Angliya tarixida birinchi marotaba jon solig'ini joriy qildi. Ushbu voqea **Richard II** hukmronligi davrida yuz berdi. Unga ko'ra 14 yoshdan yuqori barcha erkak va ayollar mulkiy ahvolidan qat'i nazar ushbu soliqni to'lashga majbur edilar. Buning ustiga 1380-yilda jon solig'i 3 barobarga oshirildi.

Soliqlarning ko'pligi, ularni yig'ishdagi nohaqliklar va turmushdagi ijtimoiy hamda iqtisodiy qiyinchiliklar dehqonlar hamda boshqa aholi qatlamlarining qo'zg'olon ko'tarishiga sabab bo'ldi. Xususan, Oksford universitetining professori, faylasuf va ruhoni **Jon Viklif** cherkovni isloh qilish talabi bilan chiqdi. U "qirol davlatni papa nomidan emas, balki Xudoning nomi bilan boshqaradi", deb ta'kidlar edi hamda Angliyaning papaga soliq to'lashiga qarshi chiqdi. Bu davrda butun Yevropa lotin tilida ibodat qilar edi. U Injilni ingliz tiliga tarjima qildi va har bir fuqaro ingliz tilida ibodat qilishi kerak, degan fikrni ilgari surdi.

Jon Viklif ma'ruzalari shaharliklar, xususan, London aholisi orasida katta shuhrat qozondi. Uning tarafdorlaridan biri **Jon Boll** ham xalq orasida katta nufuzga ega edi. U o'z targ'ibotlarida "Odam Ato yer haydab, Momo Havo charx yigirgan paytda kim zodagon bo'lgan?" deb ta'kidlar hamda dvoryanlarga keskin qarshiliklar qilar edi. Jon Boll Kenterberi arxiyepiskopi buyrug'i bilan qamoqqa olindi. Xuddi shu davrda sabr kosasi to'lgan xalq yangi qo'zg'olonga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.






BILAG'ONLAR UCHUN

Jon Viklif – faylasuf, ilohiyotchi va ruhoni. Oksford universitetida tahsil olgan va shu yerda dars bergan. U katolik cherkovining dastlabki tanqidchilaridan biri bo'lib, uni keng qamrovli isloh qilish masalasini ko'targan. Papa va cherkovning noqonuniy ishlariga qarshi chiqqan. Jon Viklifning g'oyalari Angliya va Yevropa tarixiga katta ta'sir ko'rsatgan va keyingi asrlarda ham ko'plab islohotchilarni ilhomlantirgan.



Qirol Richard II ning
qo'zg'olonchilar bilan uchrashuvi



QO'ZG'OLONNING AHAMIYATI

Uot Tayler boshchiligidagi qo'zg'olon o'rta asrlarda gi boshqa harakatlar singari muvaffaqiyatsizlikka uchradi. Sababi qo'zg'olonning aniq harakat dasturi yo'q, ishtirokchilar harbiy ta'limga ega emas hamda yetarlicha qurol bilan ta'minlanmagan edi. Bundan tashqari, qo'zg'olon rahbarlarining diplomatik va strategik qobiliyatlari yo'q bo'lib, aniq taktik reja asosida ish olib borishmadi, amaldorlarning yolg'onlariga ishonishdi.

Dehqonlar jiddiy tayyorgarliksiz qo'zg'olon ko'tardilar, shuningdek, oddiy xalqning uzoq vaqt davomida kurash olib borishga madori va xohishi yo'q edi. Shunga qaramay, qo'zg'olon ingliz dehqonlarining keyingi taqdirida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Dehqonlar manfaatlariga qarshi qonun-qoidalar yumshatildi. Butun XV asr davomida barcha dehqonlar ozodlikni qo'lga kiritdilar. Ularning ko'pchiligi erkin dehqonlarga aylandi. Ozod dehqonlarning yerlardan foydalanganlik uchun mulkdorlarga to'lanadigan haqlari aniq belgilandi. Bu qo'zg'olon boshqa Yevropa mamlakatlariga o'ziga xos saboq bo'ldi.

UOT TAYLER QO'ZG'OLONI

Angliya shaharlarida soliq yig'uvchilarning adolatsizliklari avj olib ketdi. Xalq qo'zg'olon ko'tardi. Tarixga Uot Tayler qo'zg'oloni nomi bilan kirgan bu voqea 1381-yil Esseks grafligida boshlandi. Dehqonlar bu yerda soliq yig'uvchilarning bir nechtasini o'ldirishdi, qolganlarini haydab yuborishdi. Qo'zg'olonga qishloq hunarmandi **Uot Tayler** (taylor ingliz tilida tunukasoz ma'nosini bildiradi) rahbarlik qildi. U Yuz yillik urushda qatnashgan va harbiy qobiliyati bor edi. 1381-yilda Jon Boll qamoqdan ozod qilindi va u ham qo'zg'olon rahbarlaridan biriga aylandi.

Qo'zg'olon boshqa grafliklarga ham ko'chib, 40 ta graflikdan 25 tasi qatnashdi. Qo'zg'olonchilar Uot Tayler boshchiligidagi Londonga borishdi. Shahar kambag'allari qo'zg'olonchilarga darvozani ochib berdilar. Ular ba'zi amaldorlarning uylariga o't qo'yishdi, ba'zilarini o'ldirishdi. Qo'rqib ketgan yosh qirol Richard II Londondagi Tauer qal'asiga yashirinib oldi. Biroq qo'zg'olonchilarning talabiga ko'ra qirol ular bilan uchrashishga va kelishuv olib borishga, ularning shartlarini qabul qilishga majbur bo'ldi.

Qo'zg'olonchilar qirolga o'z shartlarini qo'yidilar. Bunga asosan qirol qo'zg'olonchilar tomonidan talab qilingan **"Mayl End"** hamda **"Smitfild"** dasturlarini qabul qildi.

"Mayl End" dasturiga ko'ra dehqonlar qaramligi bekor qilinishi, qo'zg'olonchilarga umumiy afv e'lon qilish, savdo-sotiq ishlariga erkinlik berish, 1 akr yer uchun 4 pens miqdorida ijara haqi belgilash ko'zda tutilgandi.

Qirol bu talablarni qabul qilishga majbur bo'ldi. Uning va'dalariga ishongan bir guruh qo'zg'olonchilar shaharni tashlab ortga qaytdilar. Uot Tayler boshchiligidagi guruh esa muzokaralarni davom ettirish uchun Londonda qoldi. "Smitfild" dasturiga ko'ra esa dehqonlarga cherkov yerlaridan ajratish, jamoa yerlaridan erkin foydalanish va toifaviy tabaqalarni yo'q qilish talablari qo'yildi. Biroq ikkinchi muzokara vaqtida Uot Tayler o'ldirildi. Rahbarsiz qolgan qo'zg'olonchilar shahardan haydab yuborildi va ulardan ayovsiz o'ch olindi. Shu tariqa xalq qo'zg'oloni bostirildi.

ANGLIYADA SULOLAVIY KURASHLAR. "OQ VA QIZIL GULLAR URUSHI"



Lankasterlar
sulolasi ramzi



Yorklar
xonadoni ramzi



Tyudorlar
sulolasi ramzi

1399-yilda Angliya taxtiga Lankasterlar sulolasi kelgan edi. Xalq ommasida ushbu sulolaga nisbatan ishonchsizlik va norozilik mavjud edi. Bundan Yorklar sulolasi foydalanib, hokimiyat tepasiga kelishga harakat qildi. Angliyada barcha feodallar ushbu ikki sulola tarafdorlariga aylanib, ular o'rtasida urush boshlandi. Bu sulolaviy kurashlar yuz yillik urushdan so'ng, 1455–1485-yillarda bo'lib o'tdi va 30 yilga cho'zildi.

Lankasterlar sulolasi bayrog'ida qizil, Yorklar xonadoni bayrog'ida oq atirgul tasviri tushirilgan edi. Shuning uchun bu urush tarixga **"Oq va qizil gullar urushi"** nomi bilan kirdi. Ushbu urushda oddiy aholining 1/4 qismi hamda yirik zodaonlarning ko'pchiligi qirilib ketdi.

Nihoyat, 1485-yilda Bosvort shahri yaqinida bo'lib o'tgan jangda Yorklar xonadoni mag'lubiyatga uchradi. Urushda har ikki sulolaning yirik vakillari halok bo'lgan edi. Shuning uchun Lankasterlar xonadonini qo'llab-quvvatlagan Genrix VII Tyudor Angliya qiroli sifatida taxtga o'tirdi. U yorklar sulolasidan Eduard IV ning qiziga uylanib, o'z gerbida qizil va oq atirgullarni birlashtirdi. Angliya tarixida yangi sulola davri boshlandi.



QO'SHIMCHA O'QISH UCHUN

Angliyada Lankasterlar sulolasidan Genrix IV hukmronligi yillarida Sohibqiron Amir Temurning dovrug'i allaqachon G'arbiy Yevropa mamlakatlariga tarqalgan edi. Yevropa hukmdorlari Usmoniy turklar imperiyasi tahdididan xavfsirab

o'sha davrdagi eng shavkatli hukmdor Amir Temur bilan hamkorlik o'rnatishga harakat qilganlar. O'z navbatida, Amir Temur uchun ham G'arb mamlakatlari bilan munosabatlar o'rnatish manfaatli edi. Shu sababli bu ikki hukmdor o'rtasida 1403-yilda o'zaro maktublar almashildi.

Arxiyepiskop Ioann Amir Temurning G'arbiy Yevropa mamlakatlaridagi elchisi sifatida 1403-yilda Sohibqironning maktubini Angliya qiroli Genrix IV ga yetkazadi.

Angliya qirolining shu yili Amir Temurga yozgan javob maktubida "o'zaro aloqalarimiz doirasini kengaytirish, mamlakatlarimiz savdogarlarining bir-birlari bilan qadimda o'ta-bobolarimiz davrida bo'lganidek hamkorliklarini tiklamoq va bunga shart-sharoit

yaratmoq niyatida ekanimizni bildirmoqchimiz. Bu so'zlarni, ulug' hukmdor, sizga bo'lgan do'stligimiz belgisi tariqasida aytarkanmiz, iltifot bilan so'zardikki, bundan buyon bizning savdogarlarimiz sizning yerlaringizda xavf-xatarsiz, emin-erkin yurishlari uchun sharoit yaratib bergaysiz", degan so'zlar bitilgan edi (**Lyus-yen Keren va Akmal Saidovning "Amir Temur va Fransiya" kitobidan**).

Angliya bilan aloqalar o'rnatib, savdo-sotiqni jonlantirishda temuriy shahzoda Mironshohning ulkan tashabbusi bor edi. Mironshoh G'arbiy Yevropa mamlakatlari bilan savdo aloqalarini

rivojlantirish maqsadida xristian ruhoniylar va savdogarlarining daxlsizligini ta'minlashga harakat qildi. Chunki Amir Temurning G'arbiy Yevropa mamlakatlariga yo'llagan elchilari Mironshohga qarashli hududlar orqali o'tgan. Ta'kidlash kerakki, Amir Temur va Temuriylar saltanatida millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik masalalariga ustuvor ahamiyat berilgan.



Qirol Genrix IV

ATAMALAR IZOHI



Akr – yer o'lchov birligi. 1 akr 40 sotixga teng yer maydoni. O'rta asrlarda akr dastlab bir dehqonning bir ho'kiz bilan bir kunda haydashi mumkin bo'lgan va ekin ekilgan yer maydonini bildirgan.

Pens yoki **penni** – Angliyada pul birligi hisoblanib, asosan mayda tanga pullarga nisbatan ishlatilgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Angliyada iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot qanday edi?
2. Ijtimoiy ziddiyatlarning kuchayishiga nima sabab bo'ldi?
3. Uot Tayler qo'zg'olonining sababi va oqibatlari qaysi jarayonlarda namoyon bo'ladi?
4. Angliyada sulolaviy kurashlar mamlakat taraqqiyotiga qanday ta'sir ko'rsatdi?



Qirol Fridrix II

6-mavzu

Germaniyada ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy hayot



SIZ BILIB OLASIZ:

- Fridrix II hukmronligi. Shtaufenlar sulolasining tugashi;
- Iqtisodiy-siyosiy ahvol. Mamlakat xo'jaligi;
- Siyosiy taraqqiyotning o'ziga xosligi;
- Germaniya shaharlari va savdo ittifoqlari.



ESLAB KO'RING!

- “Muqaddas Rim imperiyasi” qachon tashkil topdi va nima uchun shunday nomlangan?
- Germaniyada Shtaufenlar sulolasi qachon hokimiyat tepasiga keldi, ushbu sulolaning eng yirik vakili kim edi?

FRIDRIX II HUKMRONLIGI. SHTAUENLAR SULOLASINING TUGASHI

Aziz o'quvchilar, siz 7-sinf Jahon tarixi darsligida Germaniya qirolligining tashkil topishi, Otton I uyg'onish davri, Fridrix I Barbarossa va Shtaufenlar sulolasi haqidagi ma'lumotlarni o'qigansiz. Bu sulola davrida Germaniyaga Italiya janubidagi hududlar qo'shib olindi. Imperatorlar shu vaqtdan e'tiboran Sitsiliyadan turib butun imperiyani idora qila boshladilar.

Kelib chiqishi nemis va italyan millatlariga mansub bo'lgan imperator Fridrix II Shtaufenlar sulolasining eng ko'zga ko'ringan vakili edi. Fridrix II arab va Vizantiya madaniyatiga juda qiziqar, uning saroyida arab, vizantiyalik va yahudiy olimlari bor edi. O'zi esa arab va yunon tillarida so'zlasha olar, lotin tilida maktublar, italyan tilida she'rlar yozardi. Sharq musiqasi, raqslari, she'riyati, adabiyoti va me'morchiligiga juda qiziqar edi. Imperatorning Palermodagi saroyi sharqona uslubda bezatilgan bo'lib, arab hukmdorlarining qarorgohlarini eslatib turardi.



TARIX YONDAFTARCHANGIZGA KIRITING!

Fridrix II (1194–1250) – Yevropa imperatorlari orasida noyob iste'dod va qobiliyatga ega hukmdor edi. U hukmdor bo'lishi bilan birga fan va madaniyat homiysi edi. Ko'plab sohalarda tajribalar o'tkazdi, kitoblar yozdi, universitetga asos soldi. Me'morchilikka katta ahamiyat qaratdi. Bu qobiliyatlari sabab hatto o'z zamonasining tarixchilari ham uni **“Jahon hayrati”** deb e'tirof etdilar.



Fridrix II doimo saroy a'yonlariga Sharq siyosiy tuzumi haqida so'zlab turgan hamda ba'zi arab va turk hukmdorlari uning yaqin do'stlari bo'lgan. Bundan tashqari, u qushlarga qiziqar, 50 tagacha ov qushi – lochinlari bor edi. Imperator ovga bo'lgan qiziqishi va muhabbati tufayli **“Qushlar bilan ov qilish san'ati”** nomli kitob yozgan. Bu kitob butun Yevropada ushbu mavzuga bag'ishlangan birinchi kitob edi. Shuningdek, imperator Fridrix II Neapol universitetiga asos solgan. Bu qirollar va hukmdorlar tomonidan asos solingan birinchi universitet edi.

Fridrix II butun hukmronligi davomida Sitsiliya qirolligini markazlashgan monarxiyaga aylantirishga harakat qildi. Uning o'zi ham Sitsiliyada yashar edi. Shuning uchun ham Germaniyada hokimiyat amalda yirik feodallar qo'lida bo'lgan. U Germaniyada feodallar imperatorlikka boshqa nomzod ko'rsatmasligi uchun ularning barcha shartlarini bajarar va yon bosar edi. Dastlabki paytlarda uning Rim papasi bilan munosabatlari yaxshi bo'lgan. Biroq papa Grigoriy IX davrida qirol va papa munosabatlari keskinlashdi. Papa uni yere'tik, ya'ni dindan qaytgan deb e'lon qildi. Keyingi papa Innokentiy IV imperator Fridrix II ni shakkoklikda aybladi. Papa va imperator o'rtasida chinakam urush boshlanib ketdi. Fridrix II 1248-yilda mag'lubiyatga uchrab, oradan ikki yil o'tganidan so'ng, 1250-yili vafot etdi.



Fridrix II ning tibbiyot kodeksi

Esingizda bo'lsa, 7-sinf Jahon tarixi darsligida Otton I asos solgan “Muqaddas Rim imperiyasi” haqida o'qigansiz. Bu imperiya xristian katolik cherkovi homiyligi ostida bo'lganligi uchun unga ramziy ma'noda shu nom berilgan. Biroq Shtaufenlar sulolasining so'nggi vakili Fridrix II ning papa bilan siyosiy nizolari tufayli xristian cherkovi butun imperiyaga g'oyaviy homiylikdan voz kechdi. Hatto uning fuqarolarini qasamdan xoli deb e'lon qildi. Imperatorga qarshi salib yurishlarini ham tashkil etdi. Fridrix II vafotidan keyin papa va cherkov qirol vorislarining taxtga da'vosini tan olmadi. Natijada Shtaufenlar sulolasi hukmronligi barham topdi. Mamlakatda amalda “Muqaddas Rim imperiyasi” emas, balki katolik cherkovi homiyligidan tashqaridagi Germaniya tashkil topdi.

IQTISODIY-SIYOSIY AHVOL. MAMLAKAT XO'JALIGI

Shtaufenlar sulolasi hukmronligining barham topishi natijasida Germaniyada imperatorlik hokimiyati tamomila orqaga ketdi. Mamlakatda 1254–1273-yillar davomida umuman imperator saylanmadi. Markaziy hokimiyatning yo'qligi ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishiga to'siq bo'lib, feodallarning o'zaro urushlari ijtimoiy hayot va iqtisodiy taraqqiyotga to'siq bo'ldi.

Shundan so'ng, 1273-yilda Germaniya knyazlari Rudolf Gabsburgni imperator qilib sayladilar. Ammo Gabsburglar sulolasi hukmronligi uzoq davom etmadi. Ular taxtni 1347-yilda o'z davrining qudratli xonadonlaridan biri bo'lgan Lyuksemburglarga bo'shatib berdi. Ushbu sulola vakili bir vaqtning o'zida Chexiya davlatining ham imperatori hisoblangan. Mazkur sulola davrida Germaniyada imperatorni **kurfyurstlar** deb nomlangan yetti nafar oliy darajadagi saylovchi saylar edi. Ularning to'rt nafari qudratli dunyoviy knyazlardan, uch nafari ruhoniy arxiyepiskoplardan iborat edi.

Germaniyada Lyuksemburglar hukmronligi 1437-yilda barham topdi. Taxtga shu yili yana Gabsburglar sulolasi vakillari o'tirdi. Shundan so'ng Germaniyada Gabsburglar 369 yil, ya'ni 1806-yil (Napoleon I davri)ga qadar hukmronlik qildilar.



Qirol Rudolf I

Gabsburglarning butun kuch-qudrati meros bo'lib o'tadigan xususiy yerlardan iborat edi. Ular bu yerlarni turli yo'llar bilan kengaytirishga harakat qildilar. Xususan, Niderlandiya bilan birgalikda Burgundiyaning bir qismini, Ispaniya toj-taxtini nikoh diplomatiyasi orqali qo'lga kiritdilar. Germaniyaning o'zida esa Shtiriya, Krayna, Tirol va Shvabiyaning bir qismini egalladilar. Biroq bu davrda Germaniya imperatorida amalda haqiqiy hokimiyat mavjud emas edi. Unda umumimperiya qo'shini ham, soliqlar ham, markaziy sud va ma'muriy boshqaruv tizimi ham yo'q edi. Germaniya hududidagi ilk qirolliklar singari imperator "tenglar ichida teng" – birinchi feodal, imperatorni saylash va qulatilish huquqiga ega zodagonlar jamoasining boshlig'i bo'lib qolaverdi. Germaniyada siyosiy tarqoqlik va boshboshdoqlik sabab Fransiya va Angliyadagi kabi markaziy hokimiyati mavjud bo'lmagan kuchsiz hukumat hukm surdi.

Siyosiy tarqoqlik Germaniyaning xalqaro munosabatlardagi nufuziga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatdi. XV asrga kelib Germaniya imperiya hududiga qarashli bo'lgan yerlaridan birin-ketin ayrila boshladi. Imperiya tasarrufidagi hududlarning aksariyati o'zlarini mustaqil deb e'lon qildi, ayrimlari boshqa kuchli davlatlar hukmronligi ostiga o'tib ketdi. Jumladan, XV asrning 60-yillarida Prussiya hududi Polsha qiroli hukmronligi ostiga, Shlezvig-Golshteyn Daniyaga o'tdi. Chexiya va Shveysariya mustaqil davlatga aylandi.

GERMANIYA SHAHARLARI VA SAVDO ITTIFOQLARI

Germaniyada geografik jihatdan qulay hududlarda joylashgan shaharlar ko'p edi. Ularning aksariyati daryo bo'ylarida, unumdor yerlarda hamda savdo-sotiq uchun qulay portlar, savdo yo'llari kesishgan muhim strategik hududlarda joylashgan edi. Shu omillar turli siyosiy nizolar va urushlar davrida ham bu shaharlarning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynadi.

Shimoliy Germaniya shaharlari Shimoliy va Boltiq dengizlarida savdo-sotiq ishlarini olib borardi. Ular G'arbiy Yevropa mamlakatlarining shimoli-sharqiy Yevropa davlatlari bilan savdo ishlarida vositachilik qilar edi. Shunday sharoitda XIV asr o'rtalariga kelib, Shimoliy Germaniyaning Lyubek, Gamburg, Bremen va boshqa shaharlari **Ganza savdo ittifoqiga** birlashdilar. Bu savdo ittifoqi Skandinaviya mamlakatlari, Polsha, Angliya va Rossiya bilan keng savdo-sotiq olib borar edi.

Ganza ittifoqiga Yevropaning ko'plab shaharlari kiritilgan bo'lib, ularning aksariyati port sha-



Ganza muhri

Mayns, Kyoln, Vorms, Strasburg kabi yirik shaharlar kirgan edi. Ular xalqaro savdoda Italiya, Fransiya, Niderlandiya bilan o'zaro hamkorlik olib borardi.

Germaniyada janubiy va g'arbiy shaharlarning **Shvabiya ittifoqi** ham mavjud edi. Bu ittifoq 1331-yilda tashkil topgan bo'lib, Yuqori Dunay daryosi bo'yida joylashgan 90 ta shaharni o'z ichiga olgandi. Shvabiya ittifoqining Augsburg, Ulm, Nyurnberg kabi shaharlari gazlama, metallurgiya, qurol ishlab chiqarishda yetakchi edi. Bu shaharlar Italiya savdosi bilan bog'langan bo'lib, Venetsiyada ushbu ittifoqning yirik savdo markazlari mavjud edi.

ATAMALAR IZOHI



Kurfyurst – Germaniyada qirolni saylash vakolatiga ega bo'lgan 7 nafar imperiya knyazlari shunday nomlangan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. **Qirol Fridrix II shaxsiyatida qanday qobiliyatlar mujassamlashgan edi?**
2. **Fridrix II hukmronligi davrida qanday jarayonlar yuz berdi?**
3. **Shtaufenlar sulolasi hukmronligi barham topishining sabablari nimada edi?**
4. **Bu davrda mamlakatning iqtisodiy-siyosiy ahvoli va xo'jaligi qanday edi?**
5. **Germaniya siyosiy taraqqiyotining o'ziga xosligi nimalardan iborat?**
6. **Germaniya shaharlari, savdo ittifoqlari va ularning savdo yo'nalishlari haqida mulohaza yuriting.**
7. **Germaniyada Ganza, Shvabiya kabi savdo ittifoqlari mavjud bo'lgan vaqtda Sharq mamlakatlarida Buyuk ipak yo'li gullab-yashnagan. O'zbekiston va Jahon tarixi darsliklari asosida o'rgangan ma'lumotlaringizga tayanib, Ganza, Shvabiya kabi savdo ittifoqlari va Buyuk ipak yo'liga oid ma'lumotlarni ayting va taqqoslang.**



Rim papasi

7-mavzu

Italiya: shahar-respublikalar va Rim papalari davlati



SIZ BILIB OLASIZ:

- Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti;
- Italiya shahar-respublikalari;
- Dehqonlar qaramligining bekor qilinishi;
- “Buyuk ajralish” – Rim cherkovining uch papasi.

MAMLAKATNING IQTISODIY VA SIYOSIY TARAQQIYOTI

Oʻrta asrlarda Italiya siyosiy va iqtisodiy jihatdan beqaror mamlakat edi. Uning shimoliy qismida Lombardiya viloyati va Toskaniya shaharlari joylashgan boʻlib, Genuya va Venetsiya shahar-respublikalari bu yerning eng yirik savdo va iqtisodiy markazlari edi. Milan va Florensiya shaharlarida esa sanoat rivojlangandi.

Italiyaning markazi Papa davlati deb nomlanib, bu yer savdo-sotiq ham, hunarmandchilik ham rivojlanmagan qoloq hudud edi. Aholining bir qismi ruhoniy va ziyoratchilarga xizmat koʻrsatish, bir qismi esa dehqonchilik bilan mashgʻul boʻlgan.

Italiya janubidagi Sitsiliya qirolligi fransuz zodagonlari hukmronligi ostida edi. Ular Janubiy Italiyaning arab mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlariga jiddiy ziyor yetkazardi. Shuning uchun ham xalq bu yerdagi fransuz amaldorlari siyosatidan norozi edi. 1282-yili sitsiliyaliklar qoʻzgʻolon koʻtarib, oroldagi ajnabiylarni qirib tashladilar. Qoʻzgʻolonchilarga namoyishni boshlash uchun belgi sifatida oqshom mahali qoʻngʻiroq chalangan. Bu voqea tarixga “**Sitsiliya oqshomi**” nomi bilan kirgan.



Venetsiya savdo qirgʻogʻi

ITALIYA SHAHAR-RESPUBLIKALARI

VENETSIYA RESPUBLIKASI

XIII asrdayoq Venetsiya respublikasi Italiyadagi ulkan dengiz davlati mavqeyiga erishgan edi. Uni “**Adriatika malikasi**” deb atashar edi. Venetsiyada 200 ming aholi istiqomat qilardi. Adriatika dengizi sohillaridagi hududlar, Egey dengizidagi Evbeya oroli, Kiklad orollarining bir qismi, Krit oroli va XV asrdan boshlab Kipr oroli Venetsiya respublikasi tarkibiga kirgan.

Venetsiya respublikasi XV asrga kelib Oʻrta dengizning (baʼzi adabiyotlarda Oʻrtayer dengizi deb ham ataladi) sharqiy qismida savdo monopollariga aylandilar. Vizantiya, Misr, Suriya, Egey dengizi orollari savdo-sotiq borasida Venetsiyaga qaram edilar. Venetsiya savdo kemalari Ispaniya, Portugaliya, Fransiya, Angliya va Niderlandiyaga qatnab turardi.

Venetsiyada sanoat sohasi ham rivojlangan edi. Venetsiya movutlari, ipak gazlamalari, oynasi, qurol-yarogʻlari, kahrabodan ishlangan turli nozik va qimmatbaho buyumlar Sharq va Gʻarb bozorlarida xaridorgir edi. Venetsiya shahar-respublikasi Gʻarbiy Yevropa davlatlarining Yaqin Sharq mamlakatlari bilan savdo-sotiq ishlarida vositachilik qilgan. Venetsiyaning oltin dukatlari Yevropada pul muomalasining rivojlanishiga katta taʼsir koʻrsatdi va koʻp asrlar davomida ular ushbu qitʼada xalqaro pul vazifasini ham bajardi.

Venetsiyaning asosiy raqibi Oʻrta dengizning gʻarbiy yarmida hukmronlik qilgan Genuya shahar-davlati edi. Bu ikki shahar-respublikalar savdo-sotiq va siyosiy raqobat sababli uzoq vaqt davomida oʻzaro urush olib bordilar. Oʻzaro kurash bir asr davom etdi.

1380-yilda Venetsiya respublikasi Genuya flotini tamomila magʻlub qildi. Shu davrdan boshlab genuyaliklarning Oʻrta dengiz sharqiy qismidagi siyosiy va iqtisodiy hukmronligi barham topdi. Venetsiya floti va savdo kemalari esa Qora dengizga ham kirish huquqiga ega boʻldi.

Venetsiya savdo-oligarxiya respublikasi edi. Venetsiya respublikasini saylab qoʻyiladigan **doj** boshqargan. Venetsiya dojlarining rasmiy hukumati senat hisoblangan.

Venetsiyadagi dojlar saroyi Italiya gotika meʼmorchiligi-ning ajoyib yodgorligi edi. Uning qurilishi dastlab IX asrdan boshlanib, 1309–1424-yillarda hozirgi koʻrinishga keltirilgan. Venetsiyaning bu asosiy binosi birinchi navbatda respublika dojlarining qarorgohi edi. Saroyda Buyuk kengash va Senat, Oliy sud, politsiya, advokatlar idoralari va boshqa tashkilotlar joylashgan edi.

Venetsiyalik savdogar va sayyoh Marko Polo Osiyo boʻylab sayohatni amalga oshirgan. Sayohati davomida koʻrgan-kechirganlari haqida **“Marko Polo kitobi”**ni yozgan.



Venetsiyaning asosiy maydoni

FLORENSIYA RESPUBLIKASI

Oʻrta asrlarda Italiyaning yirik sanoat va madaniyat markazi hisoblangan Florensiya respublikasi Arno daryosi sohillarida joylashgan edi. Maftunkor goʻzalligi, noyob meʼmorchiligi hamda jozibador madaniyati uchun shaharni **“Italiya Afinasi”** deb taʼriflashgan.

Florensiya sanoatining asosiy boyligi movut boʻlib, bu yerda yetishtirilgan junning oʻzi yetarli emasligi uchun Ispaniya, Janubiy Italiya, hatto Angliya va Shotlandiyadan olib kelingan. 1330-yilda Florensiyada 90 ming aholi istiqomat qilgan. Ularning asosiy mashgʻulotlaridan biri movut ishlab chiqarish edi. Birgina XIV asrda Florensiyada 200 dan ortiq movut

ishlab chiqarish korxonalari mavjud boʻlib, ularda oʻng minglab toʻp movut tayyorlangan. Shuningdek, bu yerda ipak gazlama toʻqish, moʻynachilik va zargarlik hunarlari ham rivoj topgan edi.

Florensiya Italiyaning savdo, sudxoʻrlik va bank ishi markazi ham edi. Hatto Rim papalari oʻzlarining behisob boyluklarini Florensiya banklarida saqlashgan. Shuningdek, papalar nafaqat Italiya, balki butun Yevropada cherkov daromad va soliqlarini yigʻishni florensiyalik bankirlarga topshirgan edi. Italiya shahar-respublikalari orasida Florensiya birinchi boʻlib 1252-yilda oltin tanga zarb qilgan va ular xalqaro savdoda Venetsiya dukatlari bilan raqobatlashardi.

Florensiyada yirik zodagonlar hukmronligi uzil-kesil mustahkamlangan edi. Respublika-ning oliy organi **sinyoriya** edi. Unga katta korxonalardan yettita, kichik korxonalardan ikkita vakil saylangan. Sinyoriya boshligʻi adolat bayroqdori hisoblanib, qoʻshinning ham bosh qoʻmondoni edi.

XIV asrda Florensiyada iqtisodiy va siyosiy vaziyat ogʻirlashdi. Yirik mulkdorlar orasida hokimiyat uchun kurash kuchayib ketdi. Shu jarayonda 1378-yilda yirik qoʻzgʻolon ham boʻlib oʻtdi. Florensiya Italiyaning yirik madaniyat markazi ham edi. Bu yerda paydo boʻlgan gumanistik gʻoyalar Yevropa Uygʻonish davriga asos boʻldi.



Genuya

DEHQONLAR QARAMLIGI- NING BEKOR QILINISHI

Italiya dehqonlari yirik mulkdorlarga bevosita qaram boʻlmay, balki ularga yer orqali bogʻlangan edi. Dehqon xohlagan vaqtida yerdan, istiqomat qilib turgan joyidan va oʻz xoʻjayinidan voz kechib keta olardi. Shuning uchun Italiyada dehqonlar qaramligining bekor boʻlishi boshqa Yevropa mamlakatlariga nisbatan tezroq va nisbatan oson kechdi. Dehqonlarning ozod boʻlishi Italiya shimolida XIII asrda, janubiy shahar-respublikalarda esa XIV–XV asrlarda yuz berdi.

“BUYUK BOʻLINISH” – RIM CHERKOVNING UCH PAPASI

Nafaqat Italiya, balki butun Yevropa tarixida Rim papalari muhim ahamiyatga ega edi. Papalar Italiyadagi Papa davlati – Vatikandan turib butun katolik cherkovi, hatto Yevropa qirollari ustidan hukm oʻtkazar, soliqlarni yigʻib olishar edi. Biroq fransuz qirollarining tazyiqi bilan papa oʻz qarorgohini Avinyonga koʻchirganidan soʻng ularning nufuziga va siyosiy taʼsiriga katta putur yetdi.

1377-yilda papa Grigoriy XI Avinyondan Rimga koʻchib keldi va 1378-yilda shu yerda



Piza shahri

vafot etdi. Yangi papa saylanish jarayonida Italiya va Fransiya kardinallari o'zaro tortishib ikkita nomzod ko'rsatishdi. Italiyaliklar Urban VI ni, fransuzlar esa Kliment VII ni papa qilib sayladilar. Shu tariqa katolik cherkovida ikkita papa hukmronligi boshlandi. Ulardan papa Urban VI Rimda, papa Kliment VII esa Avinyon shahrida qarorgoh tutishgan edi. Yevropaning boshqa mamlakatlari ham bu borada ikkiga bo'linib, ularning ayrimlari italiyalik papani, ayrimlari esa fransuz papasini tan olardi.

Shundan so'ng cherkov yakka papalikni ta'minlash uchun 1409-yilda Italiyaning Piza shahrida katta yig'in chaqirdi. Ushbu yig'ilishda har ikkala papa ham o'z hokimiyatidan ixtiyoriy ravishda voz kechmadi. Shuning uchun yig'ilish ishtirokchilari Aleksandr V ni yangi papa qilib sayladilar. Natijada katolik cherkovida rasman uchta papa hukmronlik qildi.

Bu voqea tarixga **"Buyuk bo'linish"** nomi bilan kirdi. Shundan so'ng 1418-yilda o'tkazilgan navbatdagi cherkov yig'ilishida har uchala papa ham ag'darib tashlandi va Martin V ni yangi papa sifatida sayladilar. Uning hokimiyati rasman tan olindi va qarorgohi Rim shahri bo'lib qoldi. Shunday qilib papalarning "buyuk bo'linishi"ga barham berildi.

Doj (yunon tilida rahbar, graf ma'nosini bildiradi) – VIII–XVIII asrlarda Venetsiya respublikasining saylangan rahbari. Bu vaqtda Venetsiyada 120 ta dojlar rahbarlik qilishgan. Ular Venetsiyadagi eng boy va nufuzli oilalardan saylangan.

Dukat (italyancha "ducato" – gersog ma'nosini bildiradi) – oltin va kumush tangalar bo'lib, Italiya davlatlarining pul birligidir. Dukatlar birinchi marta 1284-yilda Venetsiya respublikasi tomonidan Florensiya pullariga taqlid sifatida chiqarilgan.

Kardinal (lotincha so'zdan olingan bo'lib, asos, yurak ma'nosini anglatadi) – katolik cherkovining Rim papasidan keyingi eng oliy ruhoniysi.

Sinyoriya – XIII–XIV asrlarda Italiya shahar-davlatlarida hokimiyat boshqaruvi tizimi va idorasi.

ATAMALAR IZOHI



SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Mamlakatning iqtisodiy va siyosiy taraqqiyoti qanday jarayonlarga bog'liq ravishda kechdi?
2. Italiya shahar-respublikalari Venetsiya va Florensiyada o'zaro o'xshash va farqli jihatlar nimalarda ko'zga tashlanar edi?
3. Dehqonlar qaramligining bekor qilinishi qanday oqibatlarga olib keldi?
4. Rim cherkovidagi "buyuk bo'linish" yoki "uch papalik davri" qanday omillar sababli yuz berdi?



Qirol Ferdinand II

8-mavzu

Pireney yarimoroli mamlakatlari: Ispaniya va Portugaliya



SIZ BILIB OLASIZ:

- Pireney yarimorolidagi davlatlar;
- Granada, Navarra, Kastiliya, Aragon;
- Portugaliyada ijtimoiy-siyosiy jarayonlar;
- Kastiliya va Leon qirollarining Amir Temur bilan elchilik aloqalari.

PIRENEY YARIMOROLIDAGI DAVLATLAR

Arab xalifaligi 711–714-yillarda Pireney yarimorolidagi Vestgot qirolligini bo'ysundirdi. Bu yarimorolda hozirgi Ispaniya, Portugaliya, Andorra davlatlari va Gibraltar hududi joylashgan. 756-yili Ispaniyada arab xalifaligidan ilk mustaqil amirlik tashkil topdi. X asrdan u Qurdoba amirligi deb atalgan. XII asrda Pireney yarimorolida Kastiliya, Navarra, Aragon va Portugaliya davlatlari yuzaga keldi. Arablarga qarshi uzoq vaqt olib borilgan kurashlar natijasida Ispaniya davlati tashkil topdi.



GRANADA VA NAVARRA DAVLATLARI


Al-Hamro saroyi

Granada (**G'arnota**) Ispaniyaning janubida joylashgan. U XI asrdan arablar qo'l ostiga o'tgan va 1238-yildan bu yerda Granada amirligi tashkil topgan. Bu Yevropadagi so'nggi arab davlati va 1238-yildan 1492-yilgacha Pireney yarimoroli hududidagi so'nggi islom davlati edi. Granada amirligining ispanlar tomonidan qayta bosib olinishi yarimorolda rekonkista jarayonini yakunladi. Granada amirligining qulashi xuddi Konstantinopolning qulashi kabi Yevropa davlatchiligi tarixida muhim bosqich bo'ldi.

XIII–XV asrlarda Granada siyosiy, madaniy va iqtisodiy markazlardan biri bo'lgan. Ushbu amirlik tarkibiga Almeriya, Granada, Malaga viloyatlari va Kadisning eng sharqiy hududlari kirgan. 1492-yilda Granada amirligi qulaganidan keyin, uning hududi Kastiliya tojining bir qismiga aylandi.

Navarra davlati 905–1512-yillarda Pireney yarimorolidagi davlat bo'lib, poytaxti Pamplona bo'lgan. Navarraning birinchi qiroli Sancho Garsiya edi.

Navarra 1076–1134-yillarda Aragonga tobe bo'lgan. XIII asr o'rtalarida Navarrani fransuzlar egallagan uchun bu yerda ularning ta'siri kuchli bo'lgan. Navarra iqtisodiy qoloq davlat hisoblangani bois XIII–XV asrlarda Pireney yarimorolida katta ta'sirga ega bo'lmagan. 1512-yilda Navarrani aragonlik Ferdinand bosib olgan va u Ispaniya tarkibiga kirgan.



KASTILIYA QIROLLIGI

Kastiliya qirolligi Pireney yarimorolidagi muhim va eng katta hududga ega davlat hisoblangan. Bu qirollik rekonkista jarayonlarida ham juda faol ishtirok etgan. Bu yerda dehqonlar ham arablarga qarshi kurashda jonbozlik ko'rsatishgan. Shuning uchun yirik zamindorlar ularga yon berishga majbur bo'lishgan hamda ular nisbatan ertaroq qaramlikdan qutulishgan.

Yevropadagi toifa vakillarining ilk yig'ini ham aynan Kastiliyada vujudga kelgan va **kortes** deb atalgan. Kortesning birinchi yig'ilishi Kastiliyada 1137-yilda chaqirilgan. Unda dastlab ruhoniylar va zodagonlar ishtirok etgan bo'lsa, keyinchalik, 1188-yildan shaharliklar va dehqonlarning vakillari ham qatnashish huquqiga ega bo'lishgan. Kastiliyada qiroli markazlashgan hokimiyat uchun boshqa Yevropa mamlakatlaridagi kabi zodagonlarga qarshi kurash olib bordi. Bu kurashda qiroli ko'proq shaharliklarga tayandi, mamlakatda hamma uchun barobar bo'lgan qonun ustuvorligini ta'minlashga harakat qildi. XIII asrda qiroli Alfonso X "**Huquqning yetti bo'limi**" deb nomlangan qonunlar to'plamini yaratdi. Ushbu qonunlar to'plamiga Rim huquqi asos qilib olingan bo'lib, o'rta asrlar Yevropa jamiyatidagi qonunlarning dastlabki umum-



Qirol Alfonso X



MENING TARIXIY TADQIQOTLARIM

Qo'shimcha ma'lumotlar asosida Angliyadagi parlament, Fransiya'dagi General shtatlar va Ispaniyadagi Kortes tarixi hamda bugungi faoliyatini taqqoslab kichik loyiha tadqiqotini amalga oshiring. Loyiha tadqiqotingizni sinfda ko'rgazmali vositalar bilan taqdimot qiling.

to'plamlaridan biri edi. Shuningdek, u ispan tilida yirik asarlar va Ispaniya tarixini yozish, ilmiy matnlarni arab tilidan ispan tiliga tarjima qilish tashabbusi bilan chiqdi. Kastiliya tili keyinchalik ispan adabiy tiliga asos bo'ldi.

Qirol Alfonso X davrida Toledo maktabi Yevropa ilmiy tarjimashunosligining beshigiga aylandi. Bu yerda tarjima qilingan asarlar nafaqat Ispaniyada, balki butun Yevropada mashhur bo'ldi. Italiya, Germaniya, Angliya yoki Niderlandiya kabi davlatlardan olimlar tarix, falsafa, tibbiy va diniy asarlarni tarjima qilish uchun Toledoga ko'chib o'tishdi. Ko'plab olimlarni qirolning o'zi turli mamlakatlardan yuqori maosh to'lab ishga chaqirib oldi. Toledo tarjimashunoslik ilmiy maktabida Markaziy Osiyo olimlarining asarlari ham arab tilidan lotin va boshqa tillarga tarjima qilindi. Qirol Alfonso X Salamanka universitetida osmon jismlarini kuzatadigan yirik rasadxona qurdirdi, astronomik jadvallar tuzishda ishtirok etdi. Uning davrida mamlakatda qirol hokimiyatining nufuzi yuksaldi.

Qirol Pedro I Yuz yillik urushda Angliya davlatining ittifoqchisi sifatida ishtirok etdi, yirik mulkdorlarga qarshi qattiq kurash olib bordi. Keyingi qirollar davrida mamlakatda markazlashgan hokimiyatning nufuzi pasaydi. Qirol hokimiyatini kortes qo'llab-quvvatlashga harakat qildi, biroq XIV–XV asrlarda korteslarning ham obro'si tushib, juda kam yig'iladigan bo'lib qoldi.

ARAGON DAVLATIDAN ISPANIYA QIROLLIGIGA



Qirol Ferdinand



Aragon
qirolligining
oltin tanga puli

Pireney yarimorolida Aragon federatsiya shaklidagi kichik bir davlat edi. O'rta dengizdagi Sitsiliya, Sardiniya, Neapol, Balear orollari Aragon tarkibiga kirgan. Aragonda qirol hokimiyati juda zaif bo'lib, mamlakatda parokandalik hukm surardi. Aragon Kastiliya bilan chegaradosh bo'lib, aholisining kelib chiqishi va etnik tarkibi bir edi. Kastiliya va Aragonda markaziy hokimiyatning zaifligi, toifalar o'rtasidagi ziddiyatlar har ikkala davlatni yagona Ispaniya davlatiga birlashishga majbur qildi.

1469-yilda aragonlik shahzoda Ferdinand hamda kastiliyalik malika Izabellaning turmush qurishi Ispaniyani birlashtirish yo'lida katta qadam bo'ldi. Shu vaqtdan boshlab Kastiliya va Aragon alohida davlat kengashlari hamda parlamentlarga ega, biroq yagona siyosiy qirollik bo'lib qoldi. Bu yagona Ispaniyaning vujudga kelishiga asos bo'ldi. Ferdinand va Izabella Ispaniyasi tez orada buyuk davlatga aylandi. 1492-yil Granada, 1512-yil Navarra Ispaniyaga qo'shib olindi. Portugaliyadan tashqari butun Pireney yarimoroli Ispaniyaga birlashtirildi.




PORTUGALIYADA IJTIMOIIY-SIYOSIY JARAYONLAR

Portugaliya Pireney yarimorolining janubi-g'arbiy qismida joylashgan bo'lib, 713–718-yillarda arablar tomonidan bosib olingan. Rekonkista davrida 868-yilda Vimara Peresh boshchiligidagi Portugaliya grafligi tuzildi. 1139-yilda qirol **Afonso Enrikesh** Portugaliyaning mustaqilligini e'lon qildi va uning birinchi qirolli bo'ldi. 1225-yildan boshlab Lissabon shahri Portugaliyaning poytaxtiga aylandi. XIII asrda Portugaliya qirollari o'z chegaralarini kengaytirib, bugungi kungacha deyarli o'zgarmagan hududga ega bo'lishdi.

Qirol Sancho I davrida Portugaliya tarixida tinch islohotlar amalga oshirildi. Afonso II davridan boshlab mamlakatda kortes, ya'ni parlament o'z ishini boshladi. 1279–1415-yillarda Portugaliyada monarxiya mustahkamlandi. Qirol Dinish Portugaliya flotiga, Yevropadagi nufuzli Koimbra universitetiga asos soldi.

XV asrda Avislar sulolasidan Xuan I hukmronligidan boshlab, Portugaliyaning mustamlaka siyosati boshlandi. Kichik qirollik asta-sekinlik bilan ko'plab mustamlakalarga ega bo'lgan dunyodagi eng yirik imperiyalardan biriga aylandi.


Bu davrga kelib Portugaliya xalqaro siyosatda katta dengiz flotiga ega bo'lgan hamda xalqaro savdo ishlarini amalga oshiradigan muhim davlatga aylandi. XIV–XV asrlarda portugal karvonlari Afrika, Sharqning uzoq mamlakatlari va Janubiy Amerika qit'asigacha yetib borgan. Turli mamlakatlar bilan olib borilgan savdo-sotiq ishlari uni iqtisodiyoti mustahkam mamlakatga aylantirdi. Portugaliyalik dengizchilar Vasko da Gama 1498-yilda Hindistonni va Pedro Kabral 1500-yilda Braziliyani kashf etdi. Portugaliya mustamlaka imperiyasi XV asrdan boshlab o'zining eng yuqori cho'qqisiga chiqdi.




Vasko da Gamaning Hindistonga
birinchi sayohati haqidagi qaydlar



Vasko da Gama



KASTILIYA VA LEON QIROLLARINING AMIR TEMUR BILAN ELCHILIK ALOQALARI



Gonsales de Klavixo tomonidan
yozilgan "Esdaliklar"

Pireney yarimorolidagi Kastiliya davlati Sharq mamlakatlari bilan savdo va elchilik aloqalarini olib borishga harakat qilgan. Qirol Genrix III de Trastamara o'z davrida Sharqning buyuk davlati hisoblangan Sohibqiron Amir Temur davlati bilan diplomatik yozishmalar olib borgan. Qirol Genrix III Sharq mamlakatlari bilan juda qiziqib qolgan edi. U dastlab 1402-yili Payo Sotomayor va Ernan Sanches boshchiligidagi elchilarni Amir Temurning Kichik Osiyodagi qarorgohiga yuboradi. Ispan elchilarini Sohibqiron yaxshi qabul qilib, ularga qo'shib o'z elchisi Muhammadqozi orqali qirol nomiga yozilgan maktub va sovg'alar jo'natadi. Bunga javoban ispan qiroli 1403-yilda Rui Gonsales de Klavixo boshchiligidagi ikkinchi marotaba o'z elchisini yo'llaydi. Rui Gonsales de Klavixo diplomat va sayohatchi bo'lib, madridlik boy oilaning vakili edi.

Klavixoning Amir Temur huzuriga elchilik safari uzoq va qiziqarli bo'ladi. U 1403-yil may oyida Kadisdan suzib o'tib, Rodos, Konstanti-

nopol va Trapezund orqali 1404-yil avgustda Samarqandga yetib boradi.


Poytaxt Samarqandda, Amir Temur qarorgohida bo'lgan Rui Gonsales de Klavixo 1405-yil missiyasini yakunlab, 1406-yil mart oyida Kastiliyaga qaytib ketadi va qirol Genrix III de Trastamaraga sayohati haqida ma'lumotlar jamlangan hisobotini topshiradi. So'ngroq bu hisobotlar avval Ispaniyada, keyinchalik Yevropada ispan va lotin tillariga tarjima qilinib, "**Buyuk Temur tarixi**", "**Temur qarorgohi**" va "**Samarqandga sayohat kundaligi**" nomlari bilan nashr etiladi.

"Esdaliklar"da Klavixo Sharqning mamlakat va shaharlari, xalqlarining turmushi, Amir Temur barpo etgan binolar, qasrlar, masjidlar, madrasa-

lar, xonaqohlar, savdo rastalari, Temuriylar davlatining turli mamlakatlar bilan siyosiy va savdo aloqalari, Temur saroyida amalda bo'lgan tartib-qoidalar hamda boshqa muhim ma'lumotlarni keltirib o'tgan.

1407-yilda keksa Gonsales de Klavixo davlat ishlari-dan nafaqaga chiqadi. 1412-yilda vafot etadi va avliyo Fransisko cherkoviga dafn etiladi. Klavixo Temur saltanati bilan shaxsan tanishib, davlat va jamiyat hayotini o'z "Esdaliklar"ida tasvirlab bergan.

Gonsales de Klavixo "Esdaliklar"i birinchi mar-ta 1582-yili Ispaniyaning Sevilya shahrida "Buyuk Temurning hayoti va faoli-yati" nomi bilan chop etilgan. Shundan so'ng dunyoning turli tillariga tarjima qilingan va ko'p marotaba nashr etilgan.



Rui Gonsales de Klavixo

ATAMALAR IZOHI



Rekonkista – Pireney yarimorolining arablardan qaytarib olinishi jarayoni tarixga shunday nom bilan kirgan. Rekonkista VIII–XV asrlarda davom etgan.

Kortes – ispan tilida o'rin, joy ma'nosini bildiradi. O'rta asrlarda Ispaniyada vakillik yig'inlari shunday nomlangan. Birinchi kortes 1137-yilda Kastiliyada paydo bo'lgan. XIX asrdan Ispaniya va Portugaliyada milliy qonun chiqaruvchi organ – parlament kortes deb yuritila boshlagan. Kortesar Angliyadagi parlament (1265-yil) va Fransiyadagi General shtatlardan (1302-yil) oldinroq paydo bo'lgan.

SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Pireney yarimorolidagi Granada, Navarra, Kastiliya, Aragon davlatlari ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida qanday o'xshash va farqli jihatlar mavjud?
2. Portugaliya davlatining tashkil topishi va buyuk davlatga aylanishida qanday siyosiy va ijtimoiy yo'llar bosib o'tildi?
3. Ispaniyadan Sharqning qaysi buyuk davlatlariga elchilar jo'natildi va ularning ahamiyati nimada edi?

